



INVESTITSIYALAR JALB QILISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-iyul kuni investitsiyalar jalb qilishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida mamlakatimizda Prezident saylovi yuqori saviyada o‘tgani, bu xalqimizni ulug‘ maqsadlar yo‘lida yanada birlashtirganini ta’kidladi.

Endigi vazifa belgilangan maqsadlarni kechiktirmasdan, avvalgidan-da ko‘proq g‘ayrat bilan amalga oshirishdir. Bugun jahondagi ziddiyatlar, shafqatsiz raqobat davrida bu oson bo‘lmaydi, albatta. Savdo va investitsiyalar, tovar va xizmatlar aylanishida transport-logistika tizimi tobora murakkablashib borayapti.

— Mana shunday og‘ir vaziyatda, odamlarimizga munosib sharoit yaratish uchun yuz minglab yuqori daromadli ish o‘rinlari tashkil etishimiz, dunyo bozorida raqobat qila oladigan mahsulotlarni ko‘paytirishimiz zarur. Buning uchun esa yangi-yangi texnologiyalar, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari, malakali mutaxassislar kerak, — dedi Prezident.

Shu bois yig‘ilishda tarmoq va hududlardagi investitsiya ko‘rsatkichlari, loyihalarning ijrosi va yil yakunigacha bo‘lgan ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Joriy yilning o‘tgan olti oyida tarmoqlarda 3,6 milliard dollarlik investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Andijon shahri, Buloqboishi, Romitan, G‘allaorol, Forish, Karmana, Davlatobod, Chust, Kattaqo‘rg‘on, Sirdaryo tumanlarining har biriga 50 million dollardan ko‘p to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kelgan. Buning hisobidan, ushbu tumanlarda jami 50 mingta yangi ish o‘rni, qo‘shimcha 1 trillion so‘m tushum paydo bo‘lgan.

Lekin ayrim hudud va tarmoqlarda bu ko‘rsatkich past, investitsiya muhiti qoniqarsiz. Shunday tuman va shaharlar hokimlari, vazir o‘rinbosarlari, davlat korxonalari mutasaddilari lavozimidan ozod qilindi, ayrimlariga hayfsan berildi.

Yig‘ilishda investitsiya dasturlaridagi 1 ming 500 ta loyihani tezlashtirish va 12 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbari har bir tarmoq va hududga investitsiyalarni jalb etish hamda loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha aniq harakatlar algoritmini ko‘rsatib berdi.

Jumladan, davlat investitsiya dasturi doirasida 11,5 milliard dollarlik 272 ta yirik loyihani mudatidan oldin foydalanishga topshirish bo‘yicha “loyihabay” ish tashkil etiladi. Masalan, qurilishni tezlashtirish hisobiga 29 ta, uskunalarni olib kelish va o‘rnatishga ko‘maklashish orqali 49 ta loyihani oldinroq ishga tushirish mumkin. Buning hisobiga, 700 million dollar investitsiyalarning 2-3 oy oldin o‘zlashtirilishiga erishiladi.

Bu borada transport vaziri va mamlakatimizning xorijdagi elchilariga ko‘rsatmalar berildi. Hududlardagi loyihalarni infratuzilma bilan ta‘minlash uchun nazarda tutilgan 1,2 trillion so‘m’ga qo‘shimcha yana 100 million dollar yo‘natirilishi aytiladi.



BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

MILLIY G‘OYA VA HARBIY VATANPARVARLIK RUHI

taraqqiyotimiz asosi,
farovonligimiz omili bo‘lishi kerak



Kuni kecha xalqimiz yana bir siyosiy tanlovni amalga oshirdi. Muddatidan ilgari bo‘lib o‘tgan Prezident saylovida faloq ishtirok etib, o‘z yetakchisini ko‘pchilik ovoz bilan saylab oldi.

Endigi maqsad va rejalарimiz aniq. Bu yo‘ldagi barcha strategik maqsadlarni Prezidentimiz

Tarmoqlarda 230 ta loyiha doirasida 4,4 milliard dollar, hududlarda 1 ming 200 ta loyiha doirasida 4,6 milliard dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirish zarur. Bunda loyihalar 3 ta toifaga ajratilib, ular bilan manzilli ishlanadi. Ya‘ni, yirik loyihalarga viloyat hokimining investitsiya bo‘yicha o‘rinbosari, o‘rta loyihalarga tuman hokimi, kichik loyihalarga tuman hokimining investitsiya bo‘yicha o‘rinbosari mas‘ul bo‘ladi. Bu tizimni samarali yo‘lga qo‘yish hamda masalalarni joyida hal etish uchun har bir hududga mutasaddilar birkittirildi.

Yig‘ilishda hamkor mamlakatlar bilan investitsiyaviy sheriklik natijalari ham ko‘rib chiqildi. So‘nggi ikki yilda Saudiya Arabistoni, Fransiya, Vengriya, Singapur, Misr, Germaniya, Xitoy, Italiya, Qatar va boshqa davlatlar bilan bo‘lgan oliy darajadagi uchrashuvlarda ko‘plab kelishuvlarga erishilgan.

Bu borada Vengriya, Pokiston, Tailand, Chexiya va Yaponiya bilan hamkorlikda ijobiy o‘zgarishlar borligi, bu davlatlardan investitsiya jalb qilish joriy yilning o‘zida 450 million dollarga ko‘paygani qayd etildi.

Endi xorijiy kelishuvlar doirasidagi investorlar bilan ishlash bo‘yicha yangi tizim joriy etilishi belgilandi. Unga ko‘ra, Investitsiya va tashqi savdo vazirligida “investitsiya menejeri” lavozimi tashkil etiladi va bevosita vazirga bo‘ysunadi. Ular xorijiy investorlar bilan doimiy aloqada bo‘lib, zarur masalalarni hal qilish boradi. Shu tizim asosida ishlash, joriy yilning o‘zida 450 million dollar investitsiya jalb qilish mumkinligi aytiladi.

Aksariyat viloyat, tuman va shaharlarda shakllantirilgan investitsiya loyihalari asl imkoniyatlarga mos emasligi ko‘rsatib o‘tildi. Xususan, so‘nggi ikki oyda sanoat past rivojlangan 60 ta tumanga konsalting kompaniyalari jalb qilinib, 6,5 milliard dollarlik 2 mingdan ziyod istiqbolli loyiha topilgan. Bu — har bir tumanga o‘rtacha 110 million dollar investitsiya, yuzlab ish o‘rni, degani.

Shundan kelib chiqib, konsalting kompaniyalari bilan birga, barcha tuman va shaharlarda “izlanish — ishlash chiqish — amalga oshirish” tamoyili asosida yangi loyihalarni shakllantirish vazifasi qo‘yildi. Ularni xorijiy investorlarga taqdimot qilish uchun yil yakuniga qadar har bir viloyatda hududiy investitsiya forumi o‘tkaziladi.

Shuningdek, Hukumat komissiyasi tomonidan iqtisodiyotga katta turki beradigan 97 ta yirik sanoat loyihasi tayyorlangan. Ular orqali 6,7 milliard dollar o‘zlashtirilib, 3 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarish, 27 mingdan ortiq ish o‘rni yaratish imkoniyati mavjud.

Hukumat komissiyasiga ushbu loyihalarni tezroq ishga tushirish, xorijiy kreditlardan samarali foydalanish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan Bosh vazir o‘rinbosarlari, vazirlar va hokimlar hisobot berdi.

O‘ZA

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI NOMIGA QUTLOVLAR KELMOQDA

Xorijiy mamlakatlar yetakchilari, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, taniqli davlat va jamoat arboblariidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga uning davlat rahbari lavozimiga qayta saylangani munosabati bilan qutlovlar kelmoqda. Ularda O‘zbekiston Prezidentiga yangi zafarlar, xalqimizga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklari bildirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Qozog‘iston xalqi nomidan va shaxsan o‘z nomimdan Sizni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib qayta saylanganingiz bilan dildan qutlayman.

Saylovdagi ishonchli g‘alabangiz davlat rahbari lavozimida fidokorona faoliyatingiz, Vatanga va xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qilayotganingiz natijasidir.

Ovoz berish yakunlari qudratli va taraqqiy topgan davlatni barpo etish, milliy hamjihatlikni va mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashga qaratilgan strategik siyosatingiz xalqning yuksak ishonchini qozongani va keng qo‘llab-quvvatlanayotganining yaqqol ifodasidir.

Ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro ko‘mak tamoyillariga amal qilgan holda, O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi munosabatlarni haqiqiy strategik sheriklik va ittifoqchilik ruhida yanada kengaytirishga intilishim qat‘iy ekanini tasdiqlayman.

Birgalikdagi sa‘y-harakatlar bilan davlatlararo hamkorligimizni butun Markaziy Osiyoning barqarorligi, xavfsizligi va izchil taraqqiyoti yo‘lida sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishimizga ishonaman.

Fursatdan foydalanib, Sizni davlat tashrifi bilan Qozog‘istonga kelishga taklif etaman.

Hurmatli Shavkat Miromonovich, Sizga O‘zbekiston farovonligi va ravnaqi yo‘lidagi mas‘uliyatli faoliyatingizda ko‘zlagan barcha rejalaringiz muvaffaqiyatli amalga oshishini tilayman.

Hurmat bilan,

Qosim-Jomart TOQAYEV,
Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Sizni Prezident saylovidagi ishonchli g‘alabangiz bilan muborakkob etaman.

Prezidentlik saylovi natijalari obro‘yingiz va O‘zbekiston xalqining Sizga bo‘lgan ishonchi balandligidan, respublikada barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sinhni ta‘minlashga qaratilgan pragmatik va uzoqni ko‘zlagan siyosatingizni qo‘llab-quvvatlashidan dalolatdir.

Ishonchim komil, Sizning boshchiligingizda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda mamlakatni yanada rivojlantirish va ravnaqini ta‘minlash bo‘yicha yangi g‘oya va tamoyillarning ro‘yobga chiqishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi bilan keng qamrovli sheriklikni rivojlantirish, ishonchga asoslangan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari o‘zaro hurmat va ko‘mak tamoyillari asosida mustahkamlash Qirg‘iz Respublikasi tashqi siyosatining bosh ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Qirg‘iziston — O‘zbekiston munosabatlari olti tomonlama hamkorlikning deyarli barcha yo‘nalishlari bo‘yicha misli ko‘rilmagan ijobiy o‘zgarishlar ro‘yi berdi, muhim qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha aniq kelishuvlarga erishildi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdason va shu munosabat bilan birgalikdagi sa‘y-harakatlar orqali bundan buyon ham ko‘p qirrali hamkorligimizni rivojlantirish, qardosh xalqlarimiz farovonligi yo‘lida qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish va barcha kelishuvlarimizni ilgari surishga qat‘iy intilishimni tasdiqlayman.

Sizga, hurmatli Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq va mo‘ljallagan barcha maqsadlarni amalga oshirishda yangi muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

Sadir JAPAROV,
Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidagi ishonchli g‘alabangiz munosabati bilan samimiy qutlovimni qabul qilgaysiz.

Ushbu muhim siyosiy tadbir natijalari Sizning yuksak obro‘yingiz, O‘zbekiston xalqi mamlakatni izchil ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish va uning xalqaro maydondagi o‘rmini mustahkamlashga qaratilgan strategik siyosatingizga ishonishi va uni qat‘iy qo‘llab-quvvatlashini yaqqol ko‘rsatdi.

Tojikiston — O‘zbekiston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik munosabatlari jadal rivojlantirishga salmoqli hissangizni qayd etib, ularni har tomonlama kengaytirish va yangi mazmun bilan boyitishdan chin dildan foydalanib ekanimizni bildiraman.

Siz bilan bundan buyon ham mamlakatimizning strategik sherikligi va ittifoqchiligini xalqlarimizning tub manfaatlariga muvofiq holda samarali ilgari surishga birgalikda harakat qilishimizga ishonaman.

Sizga, qadri Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq, yangi zafarlar, do‘st O‘zbekistonning og‘ishmay rivojlanishi yo‘lida o‘ylagan barcha rejalaringiz muvaffaqiyatli amalga oshishini, birodar o‘zbek xalqiga esa abadiy tinchlik, farovonlik va ravnaq tilab qolaman.

Hurmat bilan,

Emomali RAHMON,
Tojikiston Respublikasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidagi ishonchli g‘alabangiz va ushbu lavozimga qayta saylanganingiz bilan samimiy qutlayman!

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Sizning rahbarligingizda jadal taraqqiyot yo‘lidan dadil bormoqda, jamiyat hayotining barcha jabhalarida ulkan yutuqlarga erishmoqda va jahondagi nufuzini izchil mustahkamlamoqda.

Bugun Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlari yuksak darajada. Turli yo‘nalishlarda, shu jumladan, siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarida mustahkam ikki tomonlama hamkorlik yo‘liga qo‘yilgan. O‘zbekiston — Turkmaniston munosabatlari bundan buyon ham yangi sur‘at bilan rivojlanib borishiga aminman.

Ushbu yoqimli imkoniyatdan foydalanib, hurmatli Shavkat Miromonovich, Sizga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, mas‘uliyatli faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, taraqqiyot va bardavom ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat va yuksak ehtirom ila,

Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV,
Turkman xalqining milliy yetakchisi,
Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Turkmaniston xalqi va Hukumat nomidan hamda shaxsan o‘z nomimdan O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan Prezident saylovida qozongan g‘alabangiz bilan eng samimiy tabriklarimni yo‘llamoqdaman.

Ovoz berish yakunlari Sizning yurt farovonligini yuksaltirishga qaratilgan siyosatingiz qo‘llab-quvvatlanayotganini yana bir bor tasdiqladi.

Turkmaniston O‘zbekiston bilan davr sinovidan o‘tgan mustahkam do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalariga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga muhim ahamiyat qaratmoqda.

Siz bilan birgalikda samarali ishlashga tayyorligimni hamda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish niyatida ekanimni bildiraman.

Ushbu yoqimli imkoniyatdan foydalanib, Sizga, hurmatli Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq, baxt-saodat, davlat rahbari lavozimidagi mas‘uliyatli faoliyatingizda muvaffaqiyatlar, qardosh O‘zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tilayman.

Chuqur hurmat bilan,

Serdar BERDIMUHAMEDOV,
Turkmaniston Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Janobi Oliyarl!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib qayta saylanganingiz munosabati bilan Siz, Janobi Oliyarl o‘zimming eng samimiy tilaklarim va ezu istaklarimni yo‘llashdan bag‘oyat mamnunman.

Siz, Janobi Oliylariga shihat-salomatlik va baxt-saodat, do‘st O‘zbekiston hukumati va xalqiga esa yanada taraqqiyot va ravnaq tilab qolaman.

Sizga bo‘lgan samimiy ehtirolarimni qabul qilgaysiz.

Shayx Muhammad bin Zoid OI NAHAYON,
Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Prezident janoblari!

Sizni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga qayta saylanganingiz bilan muborakkob etishga ijizat bergaysiz. Saylov natijalari O‘zbekiston xalqi siyosatingizni to‘liq qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatganiga qat‘iy ishonaman.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlari yangi bosqichga ko‘tarilganini qadrlayman. Biz Vengriya va O‘zbekiston Respublikasi manfaatlari yo‘lida boshlagan ishlarni davom ettirish imkoniyatidan mamnunman, zero, o‘zaro manfaatli hamkorlikni ko‘plab boshqa yo‘nalishlarda ham rivojlantirishga qodirmiz. Ishonchim komil, iqtisodiyot, tijorat, madaniyat va ta‘lim sohalaridagi sheriklikimiz yangi imkoniyatlar ochib beradi.

Sizni ishtiritorib aytamanki, ikki tomonlama aloqalarimizga xizmat qiladigan va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorligimizni mustahkamlaydigan tashabbus doirasidagi barcha masalalarda mening hukumatim Siz bilan harakat qilishga doimo tayyor. 2023-yil oktabr oyida bo‘ljak sammitni hamda avgust oyida shaxsan uchrashishimizni intizorlik bilan kutaman.

Mas‘uliyatli faoliyatingizda muvaffaqiyatlar va mustahkam sog‘liq tilayman.

Hurmat bilan,

Viktor ORBAN,
Vengriya Bosh vaziri

Shuningdek, quyidagilar o‘z tabriklarini yo‘llagan:

Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri shayx **Muhammad bin Roshid OI MAKTUM**, Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri **Mansur bin Zoid OI NAHAYON**, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri **Shahboz SHARIF**, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi bosh kotibi **Sergey LEBEDEV**, Jahon turizm tashkiloti bosh kotibi **Xarab POLOLIKASHVILI**.

Qutlovlar kelishi davom etmoqda.

O‘ZA



MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASIDA

YAKUNIY NATIJALAR E‘LON QILINDI

2023-yil 11-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda joriy yil 9-iyul kuni bo‘lib o‘tgan muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, Prezident saylovi loyida saylovchilar ro‘yxatiga kiritilgan fuqarolarning 15,6 milliondan ziyodi yoki 79,88 foizi o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etib, o‘zi munosib deb bilgan nomzodga ovoz berdi.

Majlisda Prezident saylovi yakunlari bo‘yicha bayonnoma tuzildi hamda saylov natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Davomi 2-beta

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi XX asrning eng muhim hujjatlaridan biridir. 350 dan ortiq tilga tarjima qilingan Deklaratsiya qabul qilinganiga 75 yil bo‘lganiga qaramasdan, bugungi kungacha u davlatlar, shaxslar va nodavlat tashkilotlarning inson huquqlari sohasidagi faoliyatining asosi hisoblanadi.

ADOLATLI DUNYONING HUQUQIY POYDEVORI

Mazkur hujjat dunyoning deyarli barcha mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan va boshqa hech qaysi xalqaro hujjat bunday sharafiga da’vo qila olmaydi. Chunki unda sayyoramizda yashayotgan har bir insonning, u

qayerda tug‘ilgani, yashayotgani, qaysi millatga mansubligi, qanday tilda so‘zlashishi, diniy e’tiqodidan qat‘iy nazar, bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanini belgilagan.

Davomi 2-beta



INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

ADOLATLI DUNYONING HUQUQIY POYDEVORI

Rustam ATOVULLOYEV,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston
Respublikasi Milliy markazi
bosh yuriskonsulti

Boshlanishi 1-betda

1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Asambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bugungi kunda ma'lum bo'lgan inson huquqlari tushunchasining tub mohiyatini ochib berdi. Deklaratsiya turli siyosiy tizimlarga ega bo'lgan davlatlarda inson huquqlarini bir xilda tushunish uchun zarur shart-sharoit yaratib, inson huquqlari sohasida standartlashtirishga asos soldi.

Deklaratsiyaning tarixiy ahamiyati

1943-1945-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomini yaratish jarayonida Inson huquqlari deklaratsiyasini ishlab chiqish zarurligi masalasi ko'tarilgan. Nima uchun aynan shu paytda inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish mexanizmini yaratish muammosi bunchalik dolzarb ahamiyat kasb etdi va uni yangi xalqaro tashkilotni yaratish bilan bog'lash qanchalik asosli edi?

Buning sababi deklaratsiya muqaddimasida bayon qilingan. Jumladan, unda inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan xoli sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish, inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarurligini e'tiborga olib, barcha xalqlar va davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida ayni deklaratsiya ishlab chiqilgani ta'kidlangan.

Ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq hodisalar jamoatchilikka ma'lum bo'lgach, BMT nizomida inson huquqlari yetarlicha aniq belgilanmagani, hali himoya qilinishi lozim bo'lgan jihatlar juda ko'pligi ayon bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, BMT nizomida "inson huquqlarini himoya qilish" kabi atamalar ishlatilmagan, faqat "inson huquqlariga hurmatni rag'batlantirish va rivojlantirish" jumlasigina qo'llangan. Ushbu holatda shaxs huquqlarini batafsil sanab o'tadigan va tavsiflaydigan umumjahoniy bir hujjat zarur edi.

Shu ma'noda, deklaratsiyani Ikkinchi jahon urushi davomida sodir bo'lgan vahshiyliklarga xalqaro hamjamiyatning



javobi sifatida tushunish mumkin. Dunyoning yarmi vayronaga aylangan, millionlab odamlar halok bo'lgan, insoniyat hayoti izdan chiqqan o'sha davrda deklaratsiya bunday dahshatli harakatlar takrorlanishiga hech qachon yo'l qo'ymaslik uchun xalqaro majburiyatni belgilab berdi. Shunday qilib, tarixda birinchi marta inson huquqlari bo'yicha normalar umumlashtirilib, 30 moddadan iborat yagona hujjat shakliga keltirildi. Shundan, 3 moddada erkinlik va tenglikning asosiy tamoyillari, 21 moddada fuqarolik va siyosiy huquqlar, 6 moddada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar, 1 moddada shaxsning majburiyatlari belgilandi.

"Yo'lchi yulduz" vazifasini bajargan hujjat

Bugungi kunda deyarli barcha huquqshunos olimlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini inson huquqlarini universallashtirishning asosi deb biladi. Chunki birinchi marta inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar aynan shu hujjatda birlashtirildi. Hozirgi vaqtda ushbu hujjat o'zining tavsifiy xarakterga egaligi hamda siyosiy xususiyatiga qaramasdan, xalqaro hamjamiyat tomonidan xalqaro huquqiy majburiyatlarni keltirib chiqaradigan hujjat sifatida tan olingan. U inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro tizimini rivojlantirishda yangi sahifa ochgan hujjatdir.

Deklaratsiya har qanday demokratik jamiyatda inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarning hurmat qilinishi va ularga amal qilinish darajasini aniqlash uchun mezon vazifasini bajaradi. Unga barcha davlatlar va xalqlar bajarishi lozim bo'lgan vazifa sifatida qaraladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu hujjat universaldir. Ya'ni undagi normalar dunyoning barcha mamlakatlari-dagi odamlarga tegishli. Deklaratsiyaning asosiy tamoyil va qoidalar jahondagi aksariyat davlatlar konstitutsiyalaridan joy oldi hamda inson huquqlari sohasidagi milliy qonunchilik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va milliy huquqning tarkibiy qismiga aylandi. Xususan, 1948-yildan keyin qabul qilingan 100 dan ortiq davlatning Konstitutsiyasida hozirgi vaqtda deklaratsiya qoidalariga uyg'un va hamohang ko'plab moddalar mavjud.

Deklaratsiya inson huquqlari bo'yicha boshqa ko'plab xalqaro majburiy ahamiyatga ega bo'lgan pakt va konvensiyalarni, xaritiya va boshqa shartnomalarni ishlab chiqish uchun asos yaratdi. Shu nuqtayi nazardan, u barcha mamlakatlarda rag'batlantirilishi va himoya qilinishi kerak bo'lgan inson huquqlari bo'yicha universal standartlar uchun aniq "yo'lchi yulduz" vazifasini bajardi, desak, o'rinni bo'ladi.

Deklaratsiya inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro normalarni yaratish bo'yicha huquq ijodkorligining boshlang'ich nuqtasi bo'lgani uchun ham unda insonning asosiy huquq va erkinliklarini to'laqonli ifodalash mumkin emas. Aynan shu omil keyinchalik 1966-yil 16-dekabrda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt va iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro paktning qabul qilinishiga sabab bo'ldi.

Mazkur paktlarda deklaratsiyada nazarda tutilgan huquq va erkinliklar yanada aniqlashtirildi hamda to'ldirildi. Ular deklaratsiyadan farqli ravishda majburiy xarakterga ega. Dunyoning ko'plab davlatlari ushbu ikki paktning ishtirokchilari hisoblanadi, bu ularga ushbu paktlarda belgilangan huquq va erkinliklarni ta'minlash majburiyatini yuklaydi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt hamda uning ikkita qo'shimcha protokoli, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bilan birgalikda Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bilni tashkil etadi.

O'zbekiston demokratiya va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish yo'lida sobitqadam

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston mustaqillikka erish-

ganidan keyin qo'shilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat bo'ldi. Zero, demokratik, huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekiston inson huquqlari va manfaatlarini jamiyatni rivojlantirish, davlat qurilishining, butun ichki va tashqi siyosatining eng ustuvor yo'nalishi etib belgiladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq-erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik normalarida o'z ifodasini topgan.

Mazkur deklaratsiya O'zbekistonda demokratiya va insonparvarlik tamoyilla-

lqitiodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro paktlar normalari ham ancha keng o'rindi. Shu ma'noda, bugungi kunda O'zbekiston Konstitutsiyasini inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill normalarini o'zida mujassamlashtirgan yetuk huquqiy hujjat sifatida e'tirof etish mumkin.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimiz tarixida birinchi marta deklaratsiyaning 1-moddasida mustahkamlangan inson huquqlari tabiiy xususiyatini e'lon qildi. Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi belgilab qo'yildi. Konstitutsiyamizga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning

huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan normalarni hayotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish Xalqaro inson huquqlari kuni munosabati bilan yo'llagan murojaatida barcha davlatlarni inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligi munosabati bilan inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha faol harakatlarni amalga oshirishga, ushbu sohada yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga chaqirdi.

Joriy yil 12-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligini qabul nishonlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmon bilan mazkur sanaga bag'ishlangan tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ushbu farmonda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlangan huquq va erkinliklarning ta'minlanishi bo'yicha davlat siyosatini izchil amalga oshirish va tizimlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish va uni targ'ib qilish, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi axloqiy, huquqiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, inson huquqlari konsepsiyasini doimiy ravishda kengaytirish va takomillashtirish uchun katta ahamiyatga ega hujjatdir. Binobarin, agar 75 yil ortga nazar solsak, 1948-yilda qabul qilingan deklaratsiyaning sezilarli yutuqlarni qo'lga kiritganiga guvoh bo'lamiz. Deklaratsiya orqali millionlab odamlarning kundalik hayoti yaxshilandi, so'zlab bo'lmaydigan azob-uqubatlarning oldi olindi va adolatli dunyoning poydevori qo'yildi. Deklaratsiyaning vaqt sinovidan o'tgani, tenglik, adolat va inson qadr-qimmatining kafolatlovchi normalari uning umumbashariy tabiatidan dalolat beradi.

Shunday ekan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligi munosabati bilan barchamiz birlashishimiz va bor kuchimizni mamlakatimizda inson qadr-qimmatini hamda erkinliklarini himoya qilishga, ushbu sohada muammolarni hal etishga, deklaratsiyada belgilangan tamoyil va qadriyatlarini jamiyatimiz va davlatimiz hayotiga yanada keng joriy etishga safarbar qilishimiz dardkor. Shunday ekan, mamlakatimizda "Inson qadri uchun" degan ezuq g'oya ro'yobga chiqib, O'zbekistonimiz inson huquqlari to'la qaror topgan davlatlar qatoridan joy oladi.

MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASIDA



YAKUNIY NATIJALAR E'LON QILINDI

Boshlanishi 1-betda

Jumladan, saylovda ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning 87,05 foiz ovozi bilan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangani to'g'risida qaror qabul qilindi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Shuningdek, bayonnomada O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan nomzod Robaxon Mahmudovaga saylovchilarning 4,43 foizi, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan nomzod Ulug'bek Inoyatovga 4,02 foizi va O'zbekiston Ekologik partiyasidan nomzod Abdushukur Hamzayevga 3,74 foizi ovoz bergani aks ettirildi.

Majlisda muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davrida Markaziy saylov komissiyasiga kelib tushgan murojaatlar to'g'risidagi masala ham ko'rib chiqildi va tegishli qaror qabul qilindi.

VATANDOSHLARDAN MUNOSABAT

MUHIM SIYOSIY JARAYONDA ISHTIROK ETDIK

Gulbahor JALILOVA,
Niderlandiya Qirolligidagi Summa kolleji tinglovchisi,
"Vatandoshlar" jamoat fondining xorijdagi volontyori:

— O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovda muddatidan ilgari va saylov kuni ovoz berish jarayoni Rotterdam shahrida bo'lib o'tdi.

Bu jarayonni bevosita kuzatdim. Saylov uchastkasi milliy ruhda bezatildi. Bu yerga kelgan vatandoshlarimizning kayfiyati ham ajoyib edi. Ko'pchilik milliy kiyimda, farzandlari bilan tashrif buyurdi. Xorijdagi vatandoshlarimiz yurtimiz, farzandlarimiz kelajagiga befarq bo'lmasdan saylovda qatnashgani meni yanada g'ururlantirdi.

Men konstitutsiyaviy huquqimdan foydalanib, xorijda yashayotgan har bir o'zbek fuqarosining ham buguni va kelajagiga bevosita ta'sirini o'tkazadigan

muhim siyosiy jarayonda ishtirok etganimdan xursandman.

Prezidentimizning 2021-yil 11-avgustdagi "Vatandoshlar" jamoat fondini tashkil etish to'g'risida"gi qarorida xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni tarixiy Vatani atrofida yanada jipslashtirish, qalbi va ongida yurt bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirish, milliy o'zlikni saqlab qolish, vatandoshlar va ular tomonidan tuzilgan jamoat birlashmalarini qo'llab-quvvatlash kabi maqsadlar o'z aksini topdi. Eng muhimi, turli sohalarda faoliyat yuritayotgan vatandoshlarimiz salohiyatini mamlakatimiz taraqqiyotiga samarali yo'naltirish ham qarorning muhim jihatlardan biri bo'ldi. Bu qaror



xayrli ishlarga yo'l ochdi. Bizni ona Vatan bilan bog'ladi.

Men Eyndhoven shahrida yashayman. O'zbekistondan uzoqda bo'lsakda, istiqboldagi milliy taraqqiyotimiz yo'nalishlarini belgilab olishdek muhim jarayonga munosib hissamizni qo'shish har birimizning burchimiz, deb hisoblayman.

Suhbatilla KARIMOV,
Portugaliyadagi "Karimov clinic neuro kineziologiya"
klina tarmoqlari asoschisi, shifokor:

— Yevropada neurologiya bo'yicha tahsil olganman. Portugaliyada reabilitatsiya sohasida nevrokineziologiya orqali inson tanasidagi og'riqlarni aniqlash va tez bartaraf etish metodikasi bo'yicha qariyb 20 yildan buyon faoliyat yuritaman. Bu mamlakatning Lissabon, Leyriya shaharlarida "Karimov clinic neuro kineziologiya" klinika tarmoqlariga asos solganman.

So'nggi yillarda O'zbekistondagi islohotlar xorijdagi vatandoshlar uchun ham katta imkoniyatlar yaratdi. Vatandoshlar

bilan aloqalarni yanada mustahkamlash borasidagi oqilona siyosat natijasida Toshkent shahrida ushbu klinikaning filialini ochdim.

Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa turli yo'nalishlardagi jarayonlarni izchil kuzatib boraman. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xorijdagi vatandoshlarning haq-huquqlari kafolatlangani meni juda quvvatirdi.

Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatidagi saylovchilar bilan

"Vatandoshlar" jamoat fondi
Axborot xizmati rahbari
Ufura HABIBULLAYEVA
yoziq oldi.





BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

MILLIY G‘OYA VA HARBIY VATANPARVARLIK RUHI

taraqqiyotimiz asosi, farovonligimiz omili bo‘lishi kerak

Karim NORMATOV,
tarix fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Agar bu maqsadlar va oldimizda turgan katta ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar epkini ongli ravishda tasavvur qilsak, ko'z o'ngimizda fidoyilik va xalqparvarlik bilan amalga oshiriladigan evrilishlar shukhi o'tishi tayin.

Shu o'rinda Prezidentimiz syezddagi nutqida ilgari surgan beshta strategik maqsad yaqin kelajakdagi faoliyatimizda hal qiluvchi o'rin tutishini bir zum bo'lsa-da unutmashimiz kerak.

Keling, shu besh maqsadni yana bir bor eslaylik.

Birinchi maqsad — har bir inson-ga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish, **ikkinchi maqsad** — odamlarni hayotdan rozi qilish uchun barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, **uchinchi maqsad** — suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, **to'rtinchi maqsad** — qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish, **beshinchi maqsad** — yangi O'zbekistonni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish.

Butun xalqimiz uchun shukuhli bo'lib turgan shu kunlarda olijanob maqsadlarimizga erishish yo'lidagi bosh omillar ko'z oldimizdan o'tadi.

Aziz Vatanimizni tinchliksevar davlatga aylantirish, xalqimiz bugun va ertaga, uzoq kelajakda ham xavfsiz, xotirjam yashashi uchun sharoit yaratish, bizdan keyin avlodlarimiz ham munosib hayot kechirishiga bugun mustahkam zamin tayyorlash borasida ko'p ishlar qilinayotganiga guvoh bo'lib turibmiz. Lekin bu bizni, hech birimizni befarq tin olishga undamasligi kerak.

Shu o'rinda Prezidentimizning Surxondaryo viloyatida saylovchilar bilan uchrashuvda aytgan gapini eslaylik. O'sha uchrashuvda milliy armiyamiz salohiyatini oshirish, milliy g'oya va mafkuraviy tarbiya masalalari haqida ko'p yaxshi gaplar aytilidi. Jumladan, **“Kimki milliy g'oya, mafkura masalasida orqada qolsa, hech shubhasiz, boshqa sohalarda ham yengiladi”**, dedi davlatimiz rahbari.

Buning uchun qanday yo'l tutmoq kerak? Prezidentimiz bu borada ham aniq takliflarni ilgari surdi. Tanqli tarixchi va sharqshunos olimlar, arxeolog va faylasuflar, shoir va adiblar, jurnalistlar ishtirokida doimiy ishlovchi **nufuzli komissiya** tashkil qilinishi, bu komissiya 3 ming yildan ziyod tarixni aniq davrlarga bo'lib, ularning barcha jihatlarini tarixiy dalillar asosida obyektiv va tanqidiy o'rganish ishlarni tashkil etishi, pirovardida **2025-yilga qadar** ko'p jildli **“O'zbekiston tarixi ensiklopediyasi”** tayyorlanishi aytilib o'tildi.

Bugun biz shu muhim vazifaning ajralmas bir qismi bo'lgan harbiy vatanparvarlik borasidagi ayrim muholazalarimiz bilan o'rtoqlashmoqchimiz.

Bu haqda gapirishdan oldin sohada amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan ba'zilarini sanab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'tgan davrda qo'shinlarimiz eng zamonaviy aviatsiya, qurol-yarog', jangovar va maxsus texnika bilan ta'minlandi. Zamonaviy infratuzilmaga ega harbiy qism va shaharlarda poligon va o'quv markazlari barpo etildi, ularning moddiy-o'quv bazasi tubdan yangilandi. Harbiylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi kuchaytirildi.

Gap milliy g'oya va mafkura masalasida borar ekan, hech shubhasiz, yoshlar qalbidagi harbiy vatanparvarlik hissiini kuchaytirish zarurligini hayotning o'zi oldimizga katta vazifa sifatida qo'yimoqda.



Biz nima uchun mamlakatimizni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish harakatidamiz? Chunki bugungi tahlikali zamon, o'zgarib va murakkablashib borayotgan geosiyosiy muhit shuni taqozo qiladi.

Xavfsiz va tinchliksevar davlat yaratish, nazdimizda, milliy taraqqiyotimizning o'ta muhim yo'nalishini, hayot-mamot masalasini tashkil etadi. Shu bois, Prezidentimiz **“Albatta, dunyoda qarama-qarshilik, to'qnashuvlar tobora kuchayib borayotgan, ertaga xalqaro vaziyat qanday tus olishini oldindan aytib bo'lmaydigan bugungi g'oyat murakkab zamonda biz ko'zlagan maqsadlarga erishish oson bo'lmaydi. Lekin biz o'tgan davrda sizlar bilan, xalqimiz bilan katta safarbarlik ruhida ishlashni, aniq natijalarga erishishni o'rgandik. Ilgari o'n yillar kerak bo'lgan yo'lni qisqa muddatda bosib o'tdik. Yetarlicha bilim va tajriba orttirdik. Jahonda qancha do'st va hamkorlar topdik. Dunyo — bizga, biz dunyoga ochildik”**, deya bejiz aytadi.

Agar chuqur mulohaza yuritmasangiz, bu yutuqlar o'z-o'zidan bo'lgandek tuyulaveradi. Go'yoki shunday bo'lishi kerakdek. Aslida-chi?

Aslida, bu nihoyatda mashaqqatli yo'l bo'ldi. Yaqin-yiroq davlatlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatildi, chegaralar ochildi, o'zaro tenglik va manfaatli ruhda diplomatik aloqalar tiklandi yoki yangidan yo'lga qo'yildi. Buning samarasi o'laroq, o'tgan yetti yilda xalqimiz islohotlar qudratiga ishonadi.

Mana shunday islohotlardan biri — mudofaa qudratini ta'minlash bilan bog'liq yangilanishlar edi. Milliy siyosiy yetakchimiz yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash hamda Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida barcha pog'onadagi professional harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish



Bundan tashqari, erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlab, belgilangan eng muhim va ustuvor vazifalarni sidqidildan bajarishga kirishdik. Bunda o'quv va ilmiy ishlarni, tinglovchi va kursantlarning bilim darajasini rivojlantirish, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Mangubardi kabi otabobalarimiz harbiy merosini o'rganish hamda ularning jasoratini yoshlar ongiga doimiy ravishda singdirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda va mintaqamizda vujudga kelayotgan bugungi murakkab va tahlikali vaziyatda o'z hayotini Vatan himoyasidek

boshli mafkuraviy ruh turgan bo'lishi ham bizga yaxshi ma'lum. Shulardan biri — Temurbeklar maktablari.

Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo bir suhbatda xalq orasida “Suvorovchilar maktabi” deb tanilgan harbiy o'quv yurtlarini eslagan edi: “Farg'onada o'qib yurgan kezlarda “Suvorov” deb nomlangan o'quv maskani binosi oldidan o'tishga yuragimiz bezillardi. U yerdan doim qandaydir bir rutubat, tushkun kayfiyat, salbiy to'lqin taralib turgandek tuyulardi. Ichkaridan har xil baqir-chaqirlar, do'q-po'pisalar, ruscha buyruqlar eshittilib turardi. Bu yerda o'qiyotgan qiyofasi xomush, ba'zan yuz-ko'zi ko'kargan



Amir Temur davrida o'z qo'shini — lashkarlari, sipohiylarini asosiy armiyaga jalb qilib, to'ldirib borish uchun zabt etilgan tuman, shahar va viloyatlardan ular o'z ixtiyorlari bilan ota-onalari rozi bo'lishi evaziga askarlikka olingan. Bugun ham harbiy xizmatni imtiyoz emas, balki Vatan oldidagi muqaddas yigittlik burchi deb bilganlar safi tobora kengaymoqda.

“

naqadar muhim ahamiyatga egaligiga alohida e'tibor qaratdi.

Tub islohotlarning uzviy davomi sifatida Qurolli Kuchlar akademiyasini yetakchi harbiy ilm-fan sohasi lokomotiviga aylantirish hamda amaliyotga uzviy bog'lagan holda tizimli rivojlantirish va ilmiy salohiyati natijadorligini oshirish choralari ko'rildi. Bu, o'z navbatida, sifatlilik akademika ta'lim asosida oliy malakaviy harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada yuksaltirish, yangi O'zbekistonning jahondagi harbiy imijini mustahkamlash uchun zamin yaratishga xizmat qilmoqda.

sharaffli ishga bag'ishlagan, xalqimiz faxriga aylangan jasur harbiylarimizning jangovar shayligi, jismoniy va ma'naviy tayyorgarligini kuchaytirish dolzarb vazifamizdir.

Prezidentimiz saylovoldi uchrashuvlarida ta'kidlaganidek, bundan keyin ham harbiy xizmatchilar va soha faxriylarini, ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash, moddiy ta'minotini yanada yaxshilash, uy-joy bilan ta'minlash, farzandlari zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur chora-tadbirlar ko'rildi.

Shu o'rinda Prezidentimizning bir ezuq niyatini keltirib o'tamiz: **“Men olijanob, buyuk xalqimiz bilan birga yurtimizda erkin va farovon, inson qadri baland bo'lgan yangi davlat, yangi jamiyatni barpo etishga qattiq bel bog'laganman. Bu buyuk mas'uliyatli vazifani ado etish yo'lidagi o'zimizning bor kuch-g'ayratim, bilim va tajribamni, kerak bo'lsa, butun borlig'imni berishga tayyorman. El-yurtimizga farzandlik sadoqati bilan xizmat qilishdek buyuk e'tiqod doimo hayotimizning ma'no-mazmuni bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi”**.

Yangi jamiyatni qurish va unga yangicha ruh bag'ishlash uzoq vaqt talab qilishi tayin. Lekin o'tgan yetti yil mobaynida dadil va ortga qaytmas islohotlar amalga oshirildiki, pirovardida odamlar ongi ham, shunga hamohang jamiyatdagi kayfiyat ham ko'tarinkilik kasb etdi.

To'g'ri, hozir ularning ko'pini eslamaymiz. Aslida, bir qarashda arzimaz bo'lib ko'ringan o'zgarishlar zaminida butun

bolalarni ko'rganimizda yuragimiz yanada orqaga tortib ketardi. To'g'risini aytganda, tasavvurimizda ushbu maktab xuddi jazo koloniyasiga o'xshash joy edi. Kimki farzandi tarbiyasini epilmaydigan bo'lsa, farzandi yomon yo'llarga kirib ketgan bo'lsa, bu joyga berib qutulardi. Shuning uchun ularning aksariyati bolasidan xabar ham olmasdi. Bu joydan bola jamiyatga “bir balo” bo'lib yetishib chiqardi.

Xullas, oradan yillar o'tib, ushbu harbiy akademik litseyga borganidan butunlay boshqacha yorug' manzarani ko'rdim. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashrifidan so'ng bu maskandagi shart-sharoitlar mul'taqqo o'zgargan. Nafaqat binolar ko'rinishi, balki o'qituvchilarning qarashlari ham, yurishlari ham butkul yangi mazmun va shakl kasb etgan. Ularning bola tarbiyasiga yondashuvlari, dars uslublari o'zgartirildi.

Prezidentimiz 2017-yilda katta bir yig'ilishda dunyoni ta'lim, bilim va ilm-fan boshqarishini qat'iy ta'kidlar ekan, ayniqsa, harbiy ta'lim — uning oqsashlarini, xususan, “Suvorov” deb yuritib kelingan harbiy maktablarda milliy ruhning yo'qligi, davr talablaridan ortiq qolish namoyon bo'layotganini tanqid qilgandi. Albatta, bu achchiq haqiqat edi. Buni ko'pchiligimiz bil-sak-da, o'zgartirishga qurbimiz yetmasdi. Imkonsiz, najotsiz edik.

Davlatimiz rahbari g'oyasi va tashabbusi bilan barcha viloyatlarda harbiy ta'lim maskani Temurbeklar maktabi deb ataldi. Ahamiyatlisi, bu o'quv dargohlarining faqat nomi o'zgarmadi, balki ulardagi muhit, shart-sharoitlar butunlay yangi mazmun, yangi qiyofa kasb etdi.

Mana, ko'ryapsizmi, jamiyatning yangi qiyofasi qanday shakllanadi. Bugun Temurbeklar maktablarini tamomlagan yoshlar haqiqiy Vatan himoyachisi, xalq himoyachisi bo'lib chiqayotgani ham bor gap.

Yaqinda Termiz shahrida joylashgan, chegara qo'shinlari tasarrufidagi harbiy akademik litseyda bo'lganimizda ana shu fikrlar xayolimizdan o'tdi. Bu yerda tahsil olayotgan azamatlar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'rib, quvonchdan to'q'inlanib ketdik. O'quv auditoriyalari, o'quvchilarning yotoq joyi, ovqatlanadigan, dam oladigan xonalar, kutubxona — barcha-barchasi zamonaviy qulayliklarga ega. Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, kitobxonligi, hordiq chiqarishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, hatto iste'mol qilayotgan oziq-ovqat quvvati qat'iy nazoratga olingan. Litseydagi dars jarayonlari bugungi kun talablariga javob beruvchi o'quv qo'llanmalar, “Temur tuzuklari” bo'yicha o'tilayotgan kurslar, bu yerga jalb etilgan olimlar — bularning hammasi Amir Temur bobomizning bugungi avlodlarini tarbiyalashda o'rnatilgan edi.

Yoki yana bir misol. O'tgan yili harbiy qismlarda ilk bor “Amir Temur jangovar bayrog'i uchun” musobaqalari bo'lib o'tdi. Qo'shinlarning jangovar tayyorgarligini oshirish, harbiy an'analarni yanada mustahkamlash, buyuk ajdodlarimizga munosib mard va jasur, bilimli va jismonan baquvvat Vatan himoyachilarini tarbiyalashda ushbu musobaqalar beqiyos ahamiyatga ega.

Ayni vaqtda azmi qat'iy, shijoatli askarlarimiz xalqaro maydonlarda o'tkazilayotgan ko'plab nufuzli harbiy musobaqalarda ham faxrlar o'rnlarni egallab kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston harbiylari Xalqaro armiya o'yinlari, “Kembriya patruli” va boshqa yirik harbiy-sport musobaqalarida bir necha yillardan buyon salmoqli yutuqlarni ko'lga kiritayotgani barchamizni quvontiradi.

Yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik, ruhsak ma'naviy-xalqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada o'tgan yili mamlakatimiz bo'ylab “Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harakatini tashkil etganimiz hamda barcha umumta'lim maktablarida mazkur harakatning 20 mingdan ziyod o'quvchi yoshni qamrab olgan guruhlari tuzilgan farzandlarimiz qalbidagi Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotganini ta'kidlash lozim.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tashabbusiga ko'ra, endi so'zlari o'zbekcha bo'lsa-da, mohiyati bilan eskicha qolgan, askar qalbidagi hech qanday ma'naviy-ruhiy tuyg'u uyg'otmaydigan **“Harbiy qasamyod”** o'zgartirilib, xalq tiliga, diliga yaqin, qabul qiluvchini to'q'inlantirib, ruhiyatini ko'taruvchi **“Vatanga qasamyod”** matni yaratiladi.

Davlatimiz rahbari aytdiki, murakkab xalqaro vaziyat, xavfsizlikka nisbatan xavf-xatar va tahdidlar kuchaygan hozirgi sharoitda biz O'zbekistonning davlat suvereniteti, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlashimiz shart. Bu bizing tarix va kelajak avlodlar

oldidagi muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir.

Mamlakatimizning harbiy doktrinasini mudofaaga asoslangan. Demak, yurtimizni, erkinligimizni mudofaa qilishga asoslangan harbiy qudratga, harbiy kuchga, harbiy tuzilmaga egamiz. Bugun jahonda o'z Qurolli Kuchlarini har tomonlama ta'minlash, taraqqiy ettirish, jang san'ati, umuman, harbiy tarix borasida O'zbekiston eng sara davlatlar qatorida turadi.

Shu o'rinda **“El-yurtimiz taqdiri — mening taqdirim, Vatanimning kelajagi — mening kelajagim”**, degan ezgu tamoyilni har birimiz qalbmizga singdirib olishimiz kerak bo'ladi. Bu juda muhim. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, **“O'z farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptira olmagan davlat, qanday qudratli qurolga ega bo'lmasin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi”**.

Yana bir muhim masala — harbiy safarbarlik. Amir Temur davrida o'z qo'shini — lashkarlari, sipohiylarini asosiy armiyaga jalb qilib, to'ldirib borish uchun zabt etilgan tuman, shahar va viloyatlardan ular o'z ixtiyorlari bilan ota-onalari rozi bo'lishi evaziga askarlikka olingan. Bugun ham harbiy xizmatni imtiyoz emas, balki Vatan oldidagi muqaddas yigittlik burchi deb bilganlar safi tobora kengaymoqda.

“Bugungi tahlikali zamonda yashash, tashqi siyosatni ham, ichki siyosatni ham barqaror qilib, jonajon Vatanimiz manfaatini ta'minlash, xalqimizni rozi qilish oson emas. Buning uchun har kuni izlanib, bor imkoniyatlarni to'liq ishga solish kerak”. Davlatimiz rahbarining bu fikri ayni muddaorid. Shu bois, yangi O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari — yurtimiz mustaqilligi va xavfsizligi, hududiy yaxlitligini so'z-siz ta'minlash — eng muhim muqaddas burch.

Albatta, kelgusi yetti yillikda ham O'zbekistonning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi tashabbuslari xalqaro maydonida faol ilgari suriladi. Eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan yaxshi o'g'chnilik va strategik sheriklik munosabatlari jadal rivojlantiramiz. Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat g'oyasi atrofida birlashtirish bo'yicha samarali ish olib borishimiz zarur.

Bu borada Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Qurolli Kuchlarimizning qudrati, mudofaa qobiliyatimiz va harbiy salohiyatimizni yanada oshirish maqsadida milliy armiyamiz 2030-yilga qadar eng zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika bilan ta'minlanadi. Qo'shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, harbiy xizmatchilarni tayyorlash, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida boshlangan ishlarni jadalashitiramiz. Shu munosabat bilan harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur.

Bir so'z bilan aytganda, milliy g'oya, mafkura masalasida orqada qolmaslik va boshqa sohalarda ham yengilmaslik yo'li sifatida bugun yoshlarimiz qalbidagi harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini yanada jo'shtirishimiz kerak. Bu yo'lda esa, shakshubhasiz, Prezidentimizning Saylovoldi dasturida belgilangan vazifalarni birgalikda va hamjihatlikda bajarish g'oyat muhim o'rin tutadi.





BUGUNNING GAPI

Mamlakatimizda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, har bir yo'nalishni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e'tibor samarasida barcha soha va tarmoqlarda salmoqli natijalarga erishilmoqda. Buni birgina sholichilikdagi yangilanishlar, qo'lga kiritilayotgan yutuqlar misolida ham ko'rish mumkin.

IZBOSKANDA SHOLI PISHDI

BU O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ILK BOR KUZATILGAN VOQEA SIFATIDA ALOHIDA E’TIROFGA LOYIQ

Ma'sudjon SATTOROV,
Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori,

Ox Sung JONG,
Koreya Respublikasining O'zbekistondagi KOPIA
markazi direktori

Don mahsulotlari, ayniqsa, sholi na-faqat zarur oziq-ovqat, balki inson organ-izmining uzilevov va oqsillarga bo'lgan talabini qondirish manbai, shuningdek, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik kabi sohalarning asosiy ozuqasi ham-dir. Asosiysi, guruch inson organizmida boshqa ozuqa moddalariga nisbatan yengil hazm bo'lishi, tarkibi vitamin va fosfororganik birikmalarga boyligi jihati-dan turdoshlaridan ajralib turadi.

Ayni shu jihatlari, qolaversa, yur-timzning geografik joylashuvi, tuproq-qilim sharoiti sholi yetishtirish uchun qulay bo'lgani bois, zaminimizda qadim-dan sholi yetishtirib kelingan hamda aholi taomnomasidan guruchli ovqatlar muqim o'r'in olgan.

Gap guruchli taomlar haqida ketgani-da, birgina milliy taom — palovning shu-h-rati, uni yurdoshlarimiz naqadar sevib iste'mol qilishi va asosiysi, dunyo bo'ylab tanilganini misol sifatida keltirish kifoya.

Miloddan avval ham Markaziy Osiyo mintaqasida sholi yetishtirilganini tarixiy ma'lumotlar tasdiqlaydi. O'zbekiston za-minida qadimdan sug'orma dehqonchilik taraqqiy etgan. O'sha davrlardan beri unumdor daryo o'zanlari bo'ylab sholi yetishtirib kelinmoqda. O'zbekiston ilmiy-texnika, tibbiyot va milliy arxiv hujjatlarida qayd etilgan ma'lumotlarga ko'ra, sholi maydonlari umumiy sharoitga qarab turli yillarda kengaygan va yoki qisqargan.

Xususan, O'zbekistonda 1900-1913-yil-larda 186,9-203,4 ming gektar maydonga sholi ekilgan. Shundan 40-50 ming gektari Farg'ona vodiysida, uning asosiy qismi esa Andijon viloyatida ekilgan. Paxta yakka-hokimligiga o'tilishi munosaba-ti bilan 1931-yildan sholi maydonlari keskin qisqara boshlagan. Jumladan, o'sha yili sholizorlar 68,3 ming gektar-ga, 1960-yilga kelib esa 25 ming gek-targa tushirilgan.

Ayni paytda eng katta sholi maydon-lari Xorazm viloyati (32 ming gektar) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (26 ming gektar) bo'lsa, tarixiy hujjatlarining tasdiqlashicha, o'sha davrda sholi bu hududlarda kichik maydonlarga ekilgan.

Hozir dunyoning yuzdan ziyod dav-latida 150 million gektarda mazkur ekin parvarishlanadi. E'tiborli jihati, ye-tishtiriladigan jami sholi hosilining 92

foizi Osiyo mintaqasiga to'g'ri keladi. Qit'adoshlarimizning 90 foizi uchun gu-ruch asosiy oziq-ovqat mahsuloti hisob-lanadi.

Yangi texnologiya xarajatlarni 25-30 foiz qisqartiradi

Dunyoda sholining 95 foizi ko'chat usulida ekiladi. Mamlakatimizda esa sholining asosiy qismi an'anaviy usulda parvarishlanadi. Ya'ni sholi urug'i yerga qadalganidan pishib yetilgunga qadar yerning meliorativ holatiga, mexanik tarkibiga hamda naviga qarab 100-130 kun davomida suvga bostirib hosil olinadi. Bu usulning ko'chat qilib ekishga nisbatan bir oz isrofgarchilik tomonlari bor. Xususan, mazkur usulda har gektariga yillik suv sarfi o'rtacha 20-24 ming metr kubni tashkil qilgani holda, suvning 30-40 foizigina hosil pishib yetilishi davomida o'zlashtiriladi, xolos. Qolgan qismi esa parlanadi yoki tuproqqa shimilib ketadi. Bu shuncha suv behuda sarflanadi, isrof bo'ladi, degani.

Sholipoyalarda uzoq muddat suv ush-lab tutilishi sizot suv rejimi buzilishiga olib keladi. Natijada yer osti grunt suvlari ko'tarilib, sholi maydonlarida sho'rlanish, botqoqlanish va qayta sho'rlanish jara-yonlari yuzaga keladi. Qolaversa, bostirib sug'orishda mineral o'g'itlarning 15-20 foizi suv bilan oqib chiqib ketadi. Begona o'tlar o'sishi va ko'payishi tufayli hosil si-fati pasayadi.

Shu bois, mamlakatimizda sholi ye-tishtirishning samarali usullarini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoq-da. Bugungi kunda Xorazm vohasi ham-



Bu davrda sholipoyalardagi suv ham-da balchiq hali nisbatan sovuq bo'ladi. Ko'chatlarni esa, asosan, yosh xotin-qiz-lar va o'smirlar ekadi. Tabiiyki, bu holat ularning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ya'ni oyoq-qo'llar va ichki a'zolarida surunkali shamollash keltirib chiqarish ehtimoli yuqori.



Xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlikdagi tadqiqotlarning ilk samaralaridan biri o'laroq, Izboskan tumanidagi tajriba dalasida 3-aprel kuni ekilgan ertapishar nav shollilar pishdi. Bu O'zbekiston sharoitida ilk bor kuzatilgan voqea sifatida alohida e'tirofga loyiqdir.

Demak, bir tomondan, guruch har doim kerak, ikkinchi tomondan, sholi yetishtirish jarayonida salomatligimizni yo'qotishimiz mumkin. Shu o'rinda haqli savol tug'ildi: sholi yetishtirishdagi qiyinchiliklarga bar-ham berishning imkoni bormi? Bu savol uzoq yillar, hatto asrlar davomida javobsiz qolib kelayotgan edi.

Endi esa "ha, bor" deymiz! Gap shun-daki, Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari dunyoning zamonaviy sholi ye-

qiqot institutida tashkil etilgan KOPIA sholichilik hamkorlik laboratoriyasi hamda mintaqamizda yagona bo'lgan donli ekinlar urug'larini saralovchi foto-seperator kompleksi faoliyati, u yerda o'tkazilayotgan tadqiqotlar bilan ya-qindan tanishdi. Janubiy koreyalik ham-ko'rlar O'zbekiston sholichiligida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni ijobiy baholab, hamkorlik loyihasi yana 4 yil davom ettirilishi hamda loyiha KOPIA markazi tomonidan moliyalashtirilishini ma'lum qildi.

Yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifa-larni samarali amalga oshirish uchun Andijon viloyati tanlandi. Viloyatda Sholi-chilik institutining maktabi faol tadqiqotlar olib borayotgani ham qo'l keldi.

Shu yil aprelda viloyatning Izboskan tumanida hamkorlik doirasida belgilan-gan maqsad va vazifalarga bag'ishlangan seminar-trening o'tkazildi. Seminarda sholi ko'chatini markazlashgan tartibda tayyorlash jarayoni tushuntirilib, 30 kunlik ko'chatlar dalaga bevosita maxsus me-xanizm yordamida ekildi.

Mazkur ko'chatlarni ekish davri mo-baynida havo harorati keskin pasayib ketib, sholipoyadagi harorat +10 dara-jani tashkil etdi. Bunday havo haroratida ko'chatni qo'lda ekish imkoniyati deyarli yo'q. Lekin ko'chat ekish mexanizmi yor-damida samarali ekish mumkinligiga bar-cha seminar ishtirokchilari ishonch hosil qildi.

15-iyun kuni esa birinchi ekilgan sholini ro'vaklash fazasida yarim yillik faoliyatni baholash bo'yicha seminar bo'lib o'tdi. Bunda sholikor fermerlar, olim va mu-taxassislar hamda Janubiy Koreyaning O'zbekistondagi KOPIA markazi xodimlari ishtirok etdi.

Sholichilik sohasida ilmiy yondashuvlar

Xorijlik hamda mahalliy olimlar-niing umumiy xulosasiga ko'ra, mahalliy fermerlarda sholini ko'chat usulida yetishtirish, ayniqsa, Farg'ona vodiysi viloyatlarida bir gektar maydondan ikki marta hosil olishga qiziqish yuqori. Shu seminarda fermer va agroklasterlar vakillariga nafaqat yangi texnologiyani qo'llash, balki uning iqtisodiy samara-dorligi bo'yicha ham zarur ma'lumotlar berildi.

Jumladan, sholini ko'chatlab ekish hi-sobiga yuqori hosil yetishtirish mumkin. Bunda 25-30 kun davomida sholi max-us ekish mexanizmi idish-kasetalarida intensiv usulda ko'chat qilib tayyorlanib, keyin asosiy dalaga ekilishi natijasida

an'anaviy usulda bostirib sug'orish uchun qilinadigan katta suv sarfi hamda o'toq qilish, kimyoviy gerbitsidlar berish kabi eng zarur ishlar va xarajatlar o'z-o'zidan bar-taraf etiladi.

Sholini ko'chat qilib ekish usulida har gektar maydonda suvning yillik me'yori 40, urug'lik sholi 60, kimyoviy gerbitsid-lar, umuman, mineral o'g'itlar 25, mehnat sarfi (mexanizmlar bilan ekilganda) 40, yonilg'i-moylash materiallari va texnika sarfi 30, elektr energiyasi sarfi 30 foizga-miqdori yana 10-15 foizgacha iqtisod qili-nadi. Ushbu jihatlardan kelib chiqib, sho-likorlar yangi texnologiyani o'z faoliyatida qo'llashga har jihatdan tayyor ekanini bildirdi.

Umuman olganda, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, jum-ladan, sholichilik rivojiga qaratilayotgan e'tibor natijasida ko'chat usulida keng miqyosda sholi yetishtirilishiga zamin yaratildi. Yaqin yillarda bu usul keng ommalashishiga shubha yo'q.

Bundan tashqari, sholi yetishtirish ja-rayonida suv, urug'lik, mineral o'g'itlar, energiya kabi resurslarni iqtisod qilish hamda hosildorlikni yiliga ikki marta sholi yetishtirish hisobiga gektardan 10-11 ton-naga va hatto undan yuqori natijaga eri-shishning nazariy-amaliy asoslari ishlab chiqildi.

Xorijlik mutaxassislar bilan hamkorlik-dagi tadqiqotlarning ilk samaralaridan biri o'laroq, Izboskan tumanidagi tajriba dala-sida 3-aprel kuni ekilgan ertapishar nav shollilar pishdi. Bu O'zbekiston sharoitida ilk bor kuzatilgan voqea sifatida alohida e'tirofga loyiqdir.

Demak, loyiha bo'yicha ish bu bilan to'xtab qolmaydi. 7-10 kun oralg'ida hosilni o'rib-yig'ib olib, ikkinchi sholi ho-silini yetishtirish uchun yerni sifatli tay-yorlash zarur. 30 kunlik parvarishlangan ko'chatlar birinchi hosil o'rimidan so'ng 1-2 kunda ekish mexanizmi yordamida ekib tugallanadi.

Qayd etish zarurki, ikkinchi sholi hosili uchun bozorda talab yuqori bo'lgan ma-halliy, raqobatbardosh arpa sholi turiga mansub tez-pishar navlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Umid qilamizki, yurtimiz sholichiligi-dagi bu kabi yangilanishlar, xarajatlarni kamaytirish barobarida hosildorlikni oshiruvchi eng ilg'or usullarning amali-yotga tatbiq etilayotgani global iqlim o'zgarishi hamda keskin suv tanqisligi sharoitida ichki bozorlarimizning sholi mahsulotlariga talabini qondirishga xiz-mat qiladi.



QAROR VA IJRO



Qashqadaryo viloyati tabiiy mineral xomashyo zaxiralariga boy hudud. Bu yerda hali o'zlashtirilmagan, inson qo'li yetmagan konlar talaygina.

Prezidentning joriy yil 3-fevraldagi "2023-2025-yillarda Qashqadaryo viloyati kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, viloyatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, bo'sh turgan davlat aktivlari, mavjud tabiiy resurslar zaxiralari, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer toifasidagi maydonlar va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda investitsiyalarni jalb qilish hiso-biga qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholi daromadini oshirish maqsad qilindi. Yirik loyihalarga start berildi. Natijada viloyatda mavjud imkoniyatlardan keng foydalanishga yo'l ochildi.

Xususan, yuqoridagi qarorda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Qashqa-daryo viloyati hokimligi bilan birgalikda tegishli yer qari uchastkalarini 2023-

yil 1-mayga qadar auktsion savdolar-ga chiqarishni ta'minlashi belgilangan edi. Bugungi kunda bu vazifa bosqichma-bosqich bajarilib, yer qari uchastkalari auktsion savdolar orqali tadbirkorlarga so-tildi va sotish ishlari davom etmoqda.

Yakkabog' tumanining tog'li hududi-dagi Guldara qishlog'ida ham kattagina ta'minlash maqsadida sotuvga chiqaril-gan ko'mir koni bugungi kunda tadbirkor tomonidan sotib olinib, ayni paytda dast-labki ishlar amalga oshirilmoqda.

— Viloyatda import mahsulotlarga bo'lgan talabni mahalliy xomashyolar hi-sobidan qoplash bo'yicha ham muayyan ishlar qilinmoqda. Jumladan, Yakkabog' tumanida ko'mir zaxirasi mavjud 2 ta is-tiqbolli uchastkadan samarali foydala-nish boshlanmoqda, — deydi Qashqa-daryo viloyati hokimining mahalliy sanoat

bo'yicha yordamchisi Nodir Hamroyev. — Ushbu ko'mir konining bittasini auktsion orqali "Yakkabog' coal industry" mas'uliyati cheklangan jamiyati sotib olgan. Hozir kongra eltuvchi avtoyo'l qurilmoqda. Bu ish-lar yakuniga yetgach, ko'mir qazish bosh-lab yuboriladi. To'liq quvvatda ishga tush-gach, kundan yiliga 300 ming tonna ko'mir qazib olinadi. Joriy yilda korxona tomoni-dan 6 million dollar investitsiya jalb qilinishi natijasida ko'mir qazish va saqlash tash-kil etilib, 100 kishi ish bilan ta'minlanadi. Shuningdek, Vori qishlog'ida ikkinchi ko'mir koni ham auktsion orqali sotildi.

"Uber labs" MCHJ tomonidan xarid qilin-gach, ushbu konda ham dastlabki bosqich ishlari bajarilmoqda. Bu yerda yiliga 400 ming tonna ko'mir qazib olinadi. Shu bilan birga, 300 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Ushbu konlarning umumiy zaxirasi dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 6,6 mil-lion tonnani tashkil etadi. Hozir tadbirkor-lar konlardagi xomashyoni qazib olish maqsadida infratuzilma tarmoqlarini yaratishni boshlab yuborgan.

Viloyatdagi kon zaxiralariga xorijiy in-vestitorlarni jalb etish ishlari ham faol. Xu-susan, Avstriyaning "Lasselsberger" kom-paniyasi tomonidan Kitob va Chiroqchi tumanlaridagi konlarda geologiya-qidiruv ishlari bajarish va tayyor mahsulot ish-lab chiqarish bo'yicha yangi loyiha amal-ga oshirilmoqda.

Bu bo'yicha kompaniya rahbari va viloyat hokimi o'rtasida kelishuvga erishi-lib, memorandum imzolandi. Ushbu loyiha natijasida 250 ta yangi ish o'rni yaratiladi va eksportbop sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga erishiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyati hududida bugungi kunda 20 tur-dan ortiq noruda materiallarga ega kon uchastkalari mavjud. Hozirgi paytda viloyatda foydali konlarning 150 tasidan



olingan xomashyo asosida qurilish ma-teriallari sanoati uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Sohaga berilayotgan e'tibor o'laroq, zaxiralarni aniqlash va unga tadbirkor-larni jalb etish ishlari so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Masalan, ishga tushirilgan konlarning 50 tasi yoki 30 foizi so'nggi 3 yilda o'zlashtirildi. Buning na-tijasida 1800 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Viloyatning jami sanoati tarkibida tog'-kon sanoati ulushi hozir 7,5 foizni tashkil etadi. So'nggi 3 yilda ushbu yo'nalishda tashkil etilgan korxonalar soni ham 105 tadan 150 gacha ortdi.

Sohaga xorijiy investorlar tomonidan 150 million dollarlik sarmoya jalb etildi. Pirovardida, sement, ohaktosh, marmar-lashgan tosh, gips, kvars qumi, bentonit, mikrokalsit, dolomit kabii mahsulotlar tay-yorlash hajmi oshirildi.

Joriy yilda mavjud xomashyo za-xiralarni qayta ishlash bo'yicha qiymati

618,7 milliard so'mlik 65 ta loyiha amal-ga oshirilishi belgilangan. Joriy yilning 1-iyun holatiga ko'ra, ushbu loyihalar-niing 16 tasi ishga tushirildi. Natijada 171 ta yangi ish o'rni yaratildi. Shuningdek, kelgusida sement ishlab chiqarish va ko'mir qazib olish bo'yicha ham 137 mil-lion dollarlik yirik loyihalar ishga tushirili-shi rejalashtirilgan.

Yuqoridagi qarorda belgilanganidek, viloyatdagi noruda qazilmalarni o'z ichiga olgan 47 ta yer qari uchastkasi ro'xati shakllantirilib, auktsion savdolar-ga chiqarildi.

Hozir auktsion savdolar orqali kon-larga egalik huquqini qo'lga kiritgan tashabbuskorlar bilan qurilish materiallari yo'nalishida investitsiya loyihalari shak-lantirilmoqda.

— Joriy yilda Kitob tumani hududidagi marmar va ohaktosh konini auktsion orqali sotib oldik, — deydi "Safit carb" qo'shma korxonasi rahbari Bahrom Obidov. — Jami o'ttiz besh milliard so'm investitsiya kiritib, marmartoshni qayta ishlash zavodi qurishni boshladik. Bugungi kunda jami oltmish besh nafar mahalliy aholi bandli-gi ta'minlangan. Yangi zavodimiz ishga tushgach, yana o'n kishi uchun ish o'rni yaratiladi.

Vohada bu yo'nalishdagi ishlarning uzviy davomi sifatida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi bilan hamkorlik-da malakali mutaxassislarni jalb etgan holda Dehqonobod, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' va Qamashi tumanlarida yangi istiqbolli uchastkalarda geologiya-qidiruv ishlari amalga oshirilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Qashqadaryo viloyatida tog'-kon sanoatini rivojlantirish orqali bu yo'nalishni vohaning drayveriga aylantirish borasida tizimli ishlar davom etmoqda.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



YANGICHA YONDASHUVLAR

SAMARQANDDAGI
DOKTORANTLAR MAKTABI

*mamlakatimiz va dunyodagi 110 ta
ilmiy-tadqiqot instituti hamda klinik tibbiyot muassasalari
bilan hamkorlik qiladi*

Hamza HAMROYEV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti

Qariyb 3000-yillik tarixga ega Samarqandda bugun tibbiyot sohasida salmoqli natijalarga erishilmoqda. Zotan, Birinchi va Ikkinchi Renessans davriga munosib hissa qo'shgan, buyuk allomalar yetishib chiqqan bu qadim shahar bugun ham o'z bag'rida yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun Uchinchi Renessans poydevorini yaratuvchi malakali mutaxassislarni tayyorlashga munosib hissa qo'shmoqda.

O'zining qariyb bir asrlik faoliyati davomida Samarqand davlat tibbiyot universiteti ta'lim, ilmiy-tadqiqot va klinik salohiyatini faol rivojlantirib, moddiy-texnik bazasini mustahkamlamoqda. Hozirgi vaqtda Samarqand davlat tibbiyot universiteti (SamDTU) mamlakatimizdagi eng yirik va mustahkam ilmiy-tadqiqot bazasiga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Uning tarkibida Reabilitologiya va sport tibbiyoti ilmiy-tadqiqot instituti, L.Isayev nomidagi Mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitir kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti hamda uning klinikasi, Neyroxirurgiya va neyroeabilitatsiya ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazi, Immunologiya, allergologiya va inson genomikasi ilmiy markazi faoliyat ko'rsatayapti.

Hozirgi kunda universitetning 9 ta fakultetida 11 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda, olti yuzdan ortiq professor-o'qituvchi o'quv va ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Ular orasida 265 nafar tibbiyot fanlari nomzodi (Doctor of Philosophy, PhD) va 85 nafar fan doktori (Doctor of Science, DSc) ilmiy darajasiga ega xodimlar mavjud. 2020-2022-yillar oralig'ida ilmiy darajali xodimlar soni 3 barobar oshdi. Bu keyingi yillarda ilmiy salohiyatning jadal o'sib borayotganini ko'rsatadi. Misol uchun, 2020-yilda 22 ta, 2021-yilda 46 ta, 2022-yilda 77 ta dissertatsiya himoya qilindi. Ushbu davrda 128 nafar tadqiqotchiga PhD, 17 nafar DSc ilmiy darajasi berildi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi o'z oldiga oliy maqsadni belgilab olgan. U ham bo'lsa, mamlakatimizning hech bir fuqarosi shifo izlab o'zga yurtlarga ketmasligi uchun tibbiyotning deyarli barcha sohalarini rivojlantirib, xalqimizga vijdonan xizmat qilishdan iborat.

Universitetning ko'p qirrali faoliyati ajralmas qismi — ilmiy ishlar va innovatsiyalar hisoblanadi. ILM maskanimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, iqtidorli talabalar ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish hamda tahriyat-nashriyot bo'limlari samarali faoliyat yuritmoqda.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining qarori asosida Samarqand davlat tibbiyot universiteti qoshida hozirgi kunda ilmiy daraja beruvchi 2 ta ilmiy kengash ish olib boradi.

Professor Jasur Rizayev rahbarlik qiluvchi ilmiy kengash tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) darajasini olish uchun stomatologiya, otorinolaringologiya, sport tibbiyoti, professor Azamat Shamsiyev rahbarligidagi ilmiy kengash esa tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun akusherlik va ginekologiya, ichki kasalliklar, pediatriya, bolalar xirurgiyasi ixtisosliklari bo'yicha dissertatsiya himoyasini o'tkazish huquqiga ega.



Mazkur ilmiy kengashlar dissertatsiyalarni himoya qilish uchun eng qulay shart-sharoitlarni ta'minlab, tadqiqotchilarga materiallarni tayyorlash va yuritish bo'yicha malakali yordam ko'rsatmoqda. Eng muhimi, ta'lim mas-kanida ilm-fan rivojlanishi uchun barcha sharoit yaratilgan va imkoniyatlar yanada kengaymoqda.

Samarqand davlat tibbiyot universitetining tayanch doktorantura va doktoranturasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan xorijiy mamlakatlarda magistratura dasturlari doirasida, xususan, Janubiy Koreya va Fransiya ta'lim olgan yoshlar qabul qilingan va ilmiy tadqiqot ishlarini samarali davom ettirmoqda.

2023-yilda tayanch doktorantura va doktoranturaga o'qishga qabul qilish o'tgan yillardagidan ancha farqli va salmoqli bo'ldi. Bunda doktoranturaga kiruvchilar chet tilini bilish bo'yicha malaka sertifikatiga ega bo'lish talabi kiritildi.



Davlat test markazining chet tilini bilish darajasini aniqlash sinovlari natijalaridan so'ng 53 nafar talabgor tayanch doktorantura va doktoranturaga o'qishga qabul qilindi. Shu tariqa hozirgi kunda ishlab chiqarishdan ajralgan holda 17 ta tibbiyot ixtisosliklari bo'yicha 90 nafar falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini tayyorlayotgan shaxs tayanch doktorantura va doktoranturada o'qitilmoqda.

So'nggi ikki yilda SamDTUda falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasini o'qish muddati tamom bo'lishidan oldin 6 nafar tayanch doktorant himoya qilgani ham bugungi avlodning maqsad sari qat'iy ishtiyoq-intilishlarini namoyon etib turibdi.

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash

bo'limi rahbari Antonina Kim tashabbusi bilan SamDTUda doktorantlar maktabi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu maktab ilmiy ishlar olib borish uchun ko'p tarmoqli yondashuvga asoslanadi va bo'lajak olimlarning salohiyatini shakllantirishga yordam beradi.

Maktab ishining asosiy mavzulari olingan ma'lumotlarga statistik ishlav berish hamda xorijiy tillarni chuqur o'rganishga qaratilgan. U O'zbekiston Fanlar akademiyasi hamda dunyo mamlakatlarining 110 ta ilmiy-tadqiqot

instituti va klinik tibbiyot muassasalari bilan hamkorlik qiladi. Bundan tashqari, SamDTUda tillar kafedras hamkorligida doktorantlar uchun xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha o'quv kurslari tashkil qilingan. Chet tilini o'rgatish kurslari 3 oy davom etadi.

Dissertantlar ilmiy ishlari natijasini xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza qiladi, Web of Science va Scopus ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda maqolalarini chop ettiradi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan yosh olimlar o'rtasida yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarda ilmiy malaka oshirish uchun tanlov o'tkazildi. Tanlov natijalari-ga ko'ra, SamDTU farmatsevtika va toksikologik kimyo kafedrasining assistenti Umida Fayzullayeva g'olib deb topildi, "Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash" jamg'armasi mablag'lari hisobidan Vengriya qishloq xo'jaligi va tabiiy fanlar universitetiga ilmiy jihatdan malaka oshirib, tajriba almashishga yuborildi.

Universitetimizning yosh olimlari Ulug'bek Ochilov, Rushen G'afrov, Mashrab Yusupov "El-yurt umidi" jamg'armasining stipendiya tanlovi orqali yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarda o'z sohasi bo'yicha ilmiy mahoratini oshirish amaliyotini o'tadi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirdi.

Bu kabi ishlar zamirida inson omili uchun zarur bo'lgan ilm va amaliyot jamlanmasi yetibdi. Inson salomatligiga daxldor kasb egasi bo'lishning o'zi ham sharaflari, ham mas'uliyatli. Olim-shifokor bo'lishning zalvorini undan-da katta. Olim zahmati bejiz igna bilan quduq qazishga qiyoslanmaydi. Bu vazifalarni zim-maga olish tinimsiz izlanishni, yuqori tibbiy malaka bilan bir qatorda ma'rifati bo'lishni ham talab qiladi.



ISLOHOT

71 yoshli Hurliman opa Berdiyeva Nukus tumanining Darsan mahallasi Jiydali ovuli ko'chaboshisi. Bugungi kunda farzandlarini uyli-joyli qilib, nevaralar tarbiyasi bilan band. Shu bilan birga, mahalladagi har bir oila tinchligi, saranjomligini ham nazorat qilib boradi. Ovuldagi ayollar biror yumushga qo'l ursa, Hurliman opaga maslahat solib, uning duosi bilan ish boshlaydi. Kayvoni onaxon mahalladagi ajrimlarning oldini olishda, to'y-ma'rakalarni isrofgarchiliksiz o'tkazishda ham ko'pchilikka bosh-qosh.

MEHR VA BAXT QO'RG'ONI
farishtalari

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

So'nggi yillarda Hurliman opa singari ko'chaboshi onaxonlarga davlatimiz tomonidan e'tibor kuchaydi. Qoraqalpog'istondagi 11 350 nafar ko'chaboshi onaning har birini 1 million so'mdan rag'batlantirish maqsadida 11,3 milliard so'm mablag' ajratildi.

— Mahalla xotin-qizlar faollari-ning takliflari asosida bugungi kunda ayollarga 41 turda yordam ko'rsatish amaliyoti joriy etilgan, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi o'rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Mar-yam Ahmedova. — Jumladan, birgina "Ayollar daftari" tizimi doirasida 2021-2022-yillarda 82 mingdan ziyod xotin-qiz muammolari o'z yechimini topdi. Bu ishlarga 158 milliard 666 million so'm mablag' ajratildi. 2023-yilning o'tgan davrida 55 ming 51 xotin-qiz "Ayollar daftari"ga kiritilgan bo'lib, joriy yilning besh oyida 28 ming 729 nafarining bandligi ta'minlandi, 4400 dan ziyodi kasb-hunarga o'qitildi. 4814 nafariga 43 milliard 331 million so'm imtiyozli kreditlar berildi, 272 nafariga 1 milliard 347 million so'm miqdorda subsidiya ajratildi.

Respublikada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha 13 ming 132 nafar xotin-qizning biznes loyihasi 170 milliard 735 million so'm mablag' bilan moliyalashtirildi. 169 xotin-qiz esa hunarmandchilik bilan shug'ullanmoqda. Shuningdek, shahar va tumanlardagi yordamga muhtoj 70 nafar xotin-qiz uy-joy bilan ta'minlandi. Yana 268 nafariga uy-joylarini ta'mirlashi uchun amaliy yordam ko'rsatildi.

— Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasining bevosita tashab-



busi bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga, shuningdek, xotin-qizlarga ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, joriy yil boshidan buyon 10,3 milliard so'm miqdorda ijtimoiy yordam berildi, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasi ijtimoiy-madaniy rivojlantirish, yoshlar siyosati, turizm va jamoat birlashmalari masalalari qo'mitasi bosh mutaxassisi Bayramgul Ayimbetova. — Xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj 2 ming 710 oilaga 4,3 milliard so'm miqdorida moddiy yordam ko'rsatilgan bo'lsa, 331 nafar xotin-qizga davolanishi uchun 1,6 milliard so'm mablag' ajratildi. Shuningdek, 6

ming 16 nafar yordamga muhtoj oila va xotin-qizni uy-joy bilan ta'minlash, uy-joylarini ta'mirlash va boshqa xarajatlari uchun 4,4 milliard so'm moddiy yordam ko'rsatildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning bilim olishlari uchun qulay sharoit yaratish maqsadida 2022-2023-o'quv yilida magistratura bosqichida o'qiyotgan 2300 nafardan ziyod talaba qizning shartnoma to'lovlari to'lab berildi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan 1 ming 951 nafar xotin-qizga shartnoma to'lovi uchun 7 yil muddatga 17 milliard 220 million so'm foizsiz kredit ajratildi.

— Shu bilan birga, yordamga muhtoj oilalar vakillari, yetim yoki ota-ona qaramog'idan ayrilgan 150 nafar talaba qizning 1 milliard 56 million so'mlik shartnoma pullari davlat byudjetidan to'landi. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi



taklifi asosida 112 nafar xotin-qiz imtiyozli grant asosida, besh yillik mehnat stajiga ega 35 nafar xotin-qiz esa

— Bugun Qoraqalpog'istonda 3 ming 972 nafar xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib bormoqda. Jumladan, 2 nafar ayol Oliy Majlis Senati a'zosi, 3 nafari Qonunchilik palatasi, 20 nafari Jo'qorg'i Kengses deputati, 133 ayol tuman (shahar) kengashlari deputati, — deydi Bayramgul Ayimbetova. — Vazirlar Mahkamasi-ning qarori asosida xotin-qizlarning fidoyiligini qo'llab-quvvatlash, farzand tarbiyasi, oila, xotin-qizlar ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlar tarbiyasiga ta'sir ko'rsata oladigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Oqila ayollar", Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan "Rahbar ayollar klubi" va "Ko'chaboshi ayollar" harakatlari tashkillashtirildi. Natijada hududdagi 11 350 ayol bu harakatga qo'shildi.

Qoraqalpog'istonda iqtisodiyot, ilm-fan, ta'lim, tibbiyot, adabiyot, san'at va boshqa sohalar rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan xotin-qizlar ko'p. Ulardan biri — Kegeyli tumanidagi "Orzu" fermer xo'jaligi rahbari Palzada Saliyeva. U Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Yil ayoli" milliy tanlovining mamlakat bosqichida Gran-pri g'olibi bo'lib, Prezident sovg'asi — "Lacetti" avtomobili bilan mukofotlandi. Shuningdek, "Eng yaxshi xotin-qizlar fidoyisi" tanlovining mamlakat bosqichida Beruniy tumani "Qizil qal'a" ovul fuqarolar yig'ini xotin-qizlar fidoyisi N.Nurimbetova birinchi o'rinni egallab, u ham Prezident sovg'asi — "Lacetti" avtomobili bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, "Eng namunal xotin-qizlar muassasasi" ko'rik-tanlovining mamlakat bosqichida Ichki ishlar vazirligining xotin-qizlar muassasasi boshlig'i A.Xizirbayeva birinchi, "Eng namunal ishbilarmon ayol" tanlovi-da "Kungrad Agro-Solodoka Sistem" MCHJ boshlig'i Z.Xojametova ikkinchi o'rinni egalladi.

Imtiyozlar doirasida qoraqalpog'istonlik 7000 nafar xotin-qizga Toshkent shahar va barcha viloyatlardagi oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun kvota ajratilgan bo'lsa, tadbirkorlar uchun qo'llaniladigan soliq tuzi va miqdori deyarli 2 barobar kamaytirilmoqda. Faqatgina qoraqalpog'istonliklar uchun temir yo'l va aviabiletlarga 50 foiz imtiyoz berish tizimi joriy qilindi. Yangi o'quv yilidan e'tiboran oliygo'hlarda ta'lim olayotgan xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari daromad solig'idan ozod etiladi.

Bugungi kunda barcha shahar va tumanlarda 21 mingdan ortiq uy-joyda 350 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. 452 ta mahallaning har biriga 500 million so'mdan qo'shimcha mablag' ajratilmoqda. Shuningdek, kadastr yo'q 47 mingta turar joy va ko'chmas mulk bo'yicha tegishli hujjatlar ishlab chiqiladi. Joriy yilda 4 mingta turar joy qurilib, 4 ming fuqaroga uy qurish uchun 4 sotixdan yur ajratib beriladi.

Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash yurtimizda amalga oshirilayotgan xalqchil siyosatning bosh yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hukumatimizning xotin-qizlarga bo'lgan e'tibori sabab ular uchun barcha imkoniyatlar yaratilyapti. Zero, bugun mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mehr va baxt qo'rg'oni farishtalari bo'lmish ayollarning o'rni va ta'siri ham kundan-kun ortib bormoqda.



BOQIY MEROS

ALISHER NAVOIY ZIKR ETGAN

Mir Haydarning
qo'lyozmalari qayerda?Qosimjon SODIQOV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 10-fevraldagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida ulug‘ alloma va mutafakkirlarimizning ko‘plab bebaho asarlarini, noyob yozma manbalarni saqlash, o‘rganish va kelajak avlodga bezavol yetkazish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta’kidlangan edi. Bugun ana shu ezgu vazifalar ijrosiga jadal kirishilganining guvohi bo‘lib turibmiz.

Mir Haydar XV asrning birinchi yarmi Temuriylar davri turkiy adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyandalariidan biri bo‘lib, “Maxzan ul-asror” masnavisi bilan shuhrat qozongan.

Eski yozma manbalarda shoirning ismi bir necha ko‘rinishda uchraydi. “Maxzan ul-asror”ning Abdulrazzoq baxshi ko‘chirgan qo‘lyozma nusxasidagi asar sarlavhasida muallif unvoni bilan Mavlono Haydar deyilgan.

Asarning Istanbuldagi To‘pqopi Saroyi kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozmasidagi sarlavhada muallifning oti laqabi bilan “Mavlono Haydar telba” deya tilga olinib, uning o‘zi “Sulton Iskandar Sheroziyning modhihi ekandur” deb qayd etilgan. Bu o‘rinda “modhih” — “maq-tovchi, maddoh, badii etuvchi” anglamidir.

“Maxzan ul-asror”da shoir o‘zini Haydar va Haydariy degan. Mana o‘shaning misoli: *Tutti jhon zamzamai Haydariy, To‘ldi sado gumbadi nilufariy.*

Shayx Ahmad Taroziy o‘zining “Funun ul-balog‘at” nomli adabiyotshunoslik kitobi-da she‘r turlari to‘g‘risida so‘z yuritir ekan, ulug‘ sharh klassiklari asarlaridan o‘rnaklar keltiradi. Ularning boshlanishiga egalari unvonu fazilatlar bilan yozib qo‘yilgan. Shular orasida Mir Haydar ham bor. Uni Mavlono Haydar deb atab, she‘rlaridan misollar keltirgan.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasining ikkinchi majlisida shoirga maxsus bo‘lim ajratib, uning otini Mir Haydar majzub degan. Klassik matnlar, xususan, Navoiy asarlarida “majzub” so‘zi “aqlidan ozgan, telba, haqliqiy ishq jozibasini kechirgan kishi” ma’nolarida keladi. Mir Haydar otiga qo‘shilayotgan laqab, harqalay, tasavvufiy

“

Mir Haydarning “Maxzan ul-asror” masnaviysi XV asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan asarlaridan biridir. Shoir Mir Haydarning, qolaversa, o‘sha davrda yashab ijod qilgan, Atoyi, Gadoyi, Lutfiy, Sakkokiy singari ijodkorlarning savodi uyg‘ur xatida chiqqan. Mir Haydar o‘zining “Maxzan ul-asror” masnaviysini ham uyg‘ur xatida yozib, Sulton Iskandarga tortiq qilgan bo‘luvi kerak. Asarning arab yozuvli nusxalari keyinchalik ana shu matnga tayanib ko‘chirilgan, deyish mumkin.

ma’noda “haqiqiy ishq jozibasini kechirgan kishi” degani bo‘lsa kerak.

Navoiy “Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisida ham Mir Haydarni tilga olib, uni “Mavlono Haydar turkiygo‘y” degan. U Sulton Iskandar Sheroziy to‘g‘risida so‘z yuritir ekan, shunday yozadi: “... yeti yo sekiz yillig sultanida go‘yoki, uch ganj tapidur. Mavlono Haydar turkiygo‘y aning modhihi ekandur. Bu aning masnaviysidin dururkim:

Himmat elidur yodi baydo degan, Er nafasidur dami lyso degan. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Temuriylar zamonida yetishib chiqqan yirik turkiygo‘y shoirilar to‘g‘risida so‘zlar ekan, Mir Haydarni ham tilga oladi. Uni “Haydar Xorazmiy” degan.

Navoiy yozadi: “*Temur ko‘ragan zamonidin farzandi xaliq Shohrux Sultonning zamonining oxirig‘acha turk tili bila shu‘aro paydo bo‘ldilar va ul Hazratning avlodu ah-fodidin ham xushtab salotini zuhurig‘a keldi. Shu‘aro Sakkokiyvu Haydar Xorazmiy va Atoyivu Muqimiy va Yaqiniyvu Amiriy va Gadoyideglar.*”

Shoirning oti va uning masnaviysi “Abushqa” lug‘atida ham tilga olingan. Lug‘atchi klassik o‘zbek tilida ishlatilgan so‘zlarning ma’nosini ochiqdilar ekan, ulug‘ ijodkorlarning asarlaridan o‘rnaklar ham keltiradi. Shularning orasida Mir Haydar ham bor. Masalan, “ko‘kla” so‘zining ta’rifida yozadi: “ko‘kla” — “kof‘lar “kofe arabiy‘dur, amr edup “soz chal” ma’nosinadurki, “Maxzan Mir Haydar”da maqolai avvalda kelurki, bayt:

Turk surudini tuzuk birla tuz, Yaxshi ayalg‘u bila ko‘kla qo‘buz. Kunimizgacha “Maxzan ul-asror” masnaviysining uyg‘ur va arab yozuvli

ostida saqlanayotgan qo‘lyozmasi. Ushbu qo‘lyozma masnaviyning bizgacha yetib kelgan nusxalari orasida eng eskisi bo‘lib, ham yozuv tarixi, ham matn tarixi uchun muhim ahamiyatga egadir.

Muqovasi o‘ziniki, jigarrang charmdan. Ustki muqovaning o‘rtasida yirik bodomsimon tamg‘a, ustiga va ostiga naqshli kichik tamg‘achalar ishlangan, yozuvi yo‘q.

Kitobning boshlanishidagi ikki beti bo‘sh. Keyingi varaqlaridan boshlab, har qaysi varaqning ustki burchagiga hozirgi yozuvda raqamlab chiqilgan. Lekin, esiz,



qo‘lyozmalari yetib kelgan. Masnaviyning arab yozuvli qo‘lyozmalari ko‘p, fanga ma’lum bo‘lganlari yigirmaga yaqin. Uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmalar uchta, ular asarning eski va o‘ta qadrlil nusxalaridir.

Birinchi, “Maxzan ul-asror”ning Aliyshoh baxshi tarafidan uyg‘ur xatida ko‘chirilgan, hozirda Berlingdagi Milliy kutubxonada Ms. orient. Oct. 358 ko‘rsatkichi

bu yangi raqamlar varaqlar ketma-ketligini tiklashga imkon bermaydi. Aftidan, kitob so‘nggi kutubxonaga kelib tushganda varaqlari chiqib, qorishib ketgan chog‘i. Kutubxonada unutilgan yozuvini o‘qiy olmay, turgan holda eski muqovaga tikib qo‘ylavergan ko‘rinadi.

1a-betida bir necha muhrlar bosilib, ular bilan bog‘liq qaydlar bitib qo‘yilgan.



So‘nggi muhrdan boshqalari arab xatida. Eng ostidagi muhri va kitob bilan bog‘liq bir necha qaydlar yangi. Ular kitobning kutubxonadan kutubxonaga o‘tib kelganini bildiradi.

Asar matni kitobning 1b-betidan boshlanadi. Kitob naqshli unvon bilan ochiladi; boshdan-oxir zarhal chiziqli jadvalga olingan. Orada sarlavhalar uchun joy qoldirilgan; ular ham zarhal chiziqlar bilan o‘rog‘liq. Chamas, baxshi sarlavhalarni boshqa bir siyohda, o‘ziga yarasha xat uslubida yozib chiqishni ko‘zlagan ko‘rinadi, lekin ish tugamay qolgan.

Matn yolg‘iz uyg‘ur xatida. Ilk unvonli betida yetti qator, qolganlarida o‘n bir qator-dan qilib bitilgan. Qatorlarning oralari ochiq. Kimdir keyinchalik bundan foydalanib, asar boshlanishidagi to‘rt qatori, 2a-betidagi birinchi qator ostiga uyg‘ur yozuvli matnning o‘qilishini arab yozuvida yozib chiqqan. Xat uslubi va oddiyligi ham uni boshqa bir kimsa yozib qo‘ygani bildirib turibdi. Lekin uyg‘ur yozuvli matn oraliqlari keyinchalik uning o‘qilishi arab xatida yozib chiqishga mo‘ljallangan emas. Uyg‘ur yozuvli matnga



satr uzra bir chiziqda harakatlar qo‘yb chiqishni mo‘ljallab, oraliq keng olingan. Yana bir jihati, agar oraga arab xati bilan o‘qilishini yozib chiqish mo‘ljallanganida uyg‘ur yozuvli matnga arabcha diakretik belgilar boshdan-oxir qo‘yb chiqilmagan bo‘lardi.

Qo‘lyozmani ko‘chirgan baxshining oti kitob so‘ngida — asar tugagandan keyin “Aliyshoh baxshi” deb yozib qo‘yilbdi. Temuriylar zamonida uyg‘ur xatida bituvchi xattotlarni “baxshi” deganlar.

Aliyshoh baxshi Hirot baxshilar maktabining ko‘zga ko‘ringan namoyandalariidan biri. U yana “Me’rojnom”, “Tazkira-yi avliyo” asarlarini ham uyg‘ur xatida ko‘chirgan, o‘ta mahoratlil baxshi.

Ikkinchi, Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan FY 1423 ko‘rsatkichli qo‘lyozmaning 10b-11a-betlarida “Maxzan ul-asror”dan olingan 33 baytli uzindi bitilgan. Uyg‘ur yozuvli matn tevaragida arabcha va forsha kelgan ham bor. “Maxzan ul-asror”ning boshlanishiga kufiy uslubida basmala yozilib, ostida uyg‘ur xati bilan “Min maqolati Maxzan ul-asror” deb sarlavha qo‘yilgan. Ikkala betdagi uyg‘ur yozuvli matn yirik va kichik harflarda: yirik harflar arab xatining kufiy uslubi singari, kichik harflar esa uyg‘ur yozuvli “Qutadg‘u bilig‘”, “Me’rojnom”, “Tazkirayi avliyo” qo‘lyozmalarining xat uslubidir.

11a-betining ostida kitoba qaydi ham yozib qo‘yilbdi. Unga ko‘ra, ushbu matnni Zayn ul-obidin Al-Husayniy bitgan. Hozirga-chi saqlangan uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmalarga ko‘ra, Zayn ul-obidin baxshi Samarqand baxshilar maktabining taniqli kishilaridan bo‘lib, uning tarafidan bitilgan uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmalar Sharqda dovruq qozongan. Shulardan biri “Hibat ul-haqoyiq”ning 1441-yili Samarqandda ko‘chirilgan uyg‘ur yozuvli nusxasidir.

Uyg‘ur xatining kufiy xati singari uslubini Zayn ul-obidin ko‘chirgan qo‘lyozmalardagina ko‘rdim. Adib Ahmad Yugnakiy asarining Samarqand qo‘lyozmasida ham kufiy singari uslubda “Atabat ul-haqoyiq kitobi” deb sarlavha qo‘yilgan. Asardagi hamd bo‘limining “Nabiy alayhissalom na’tinda” sarlavhasi ham ana shunday xat uslubida.

Uchinchi, “Maxzan ul-asror” masnaviysining Abdulrazzoq baxshi tarafidan 1480-yili Istanbulda ko‘chirilgan uyg‘ur yozuvli majmau tarkibidagi nusxasi. Qo‘lyozma hozirda Istanbuldagi Ayo-sofiya masjidi kutubxonasida 4757 ko‘rsatkichi bilan saqlanmoqda. Masnaviyning saqlangan qo‘lyozmalari orasida tartibli bitilganlaridan biri.

Kitobning muqovasi o‘ziniki, qoramir charmdan, qopqoqli muqova. Muqovaning yuziga ham, ters tarafiga ham bodomsimon tamg‘a ishlanib, ularning uchi va ost qismiga kichik naqshlar chizilgan. Qopqog‘ida esa doirasimon naqshi bor. Muqovaning, qopqog‘ining ham tevaragi naqshli jadvalar bilan o‘rog‘liq. Muqovadagi jadvalar va tamg‘alar zarhalda.

Majmuaning 1b-27a-betlariga Adib Ahmad Yugnakiy qalamiga tegishli “Hibat ul-haqoyiq” asari bitilgan. Mir Haydarning “Maxzan ul-asror” asari esa majmau kitobning 28b-81a-betlarida.

Majmuadagi barcha asarlar ikki xil yozuvli: matn uyg‘ur xatida bitilib, uning o‘qilishi kitolda arab xatida yozib chiqilgan.

Qo‘lyozmaning ko‘chirilish tarixi (kolo-fon) bir o‘rinda — “Maxzan ul-asror” tugaganidan so‘ng bitilgan, xolos. U shunday o‘qiladi: “Tarix sekiz yuz seksan do‘rtida, to‘ng‘uz yili, zulqadga ayining o‘n yeti-sida, shanba kuni tamom bo‘ldi. Qutlug‘ bo‘lsun, davlat kelsun, mehnat ketsun, tep Shayxzoda Abdulrazzoq baxshi Qustan-taniyada bitidi”. Uyg‘ur yozuvli matnda yana “bitidi” so‘zining oxiriga baxshi o‘z qo‘lini ham qo‘yb qo‘ygan.

Muhimi shundaki, Abdulrazzoq baxshi asli samarqandlik. Keyinchalik turk sultonining da’vati bilan Istanbulga borib, o‘sha yerda uyg‘ur yozuvli qo‘lyozma kitoblarni ko‘chirish bilan shug‘ullangan. Unga uyg‘ur yozuvli kitoblari Hirot, Samarqand, Yazd madaniy markazlaridan yetkazib turilgan. Hatto “Qutadg‘u bilig‘ning mashhur uyg‘ur yozuvli nusxasi Hirotidan uning uchun yuborilgan. Ushbu qo‘lyozmaning oxirgi betiga Abdulrazzoq baxshi o‘z she‘rlaridan ham bitib qo‘ygan, lekin “Qutadg‘u bilig‘dan nusxa ko‘chirganmi-yo‘qmi, aniq emas. Yana bir jihati, Abdulrazzoq baxshi o‘z she‘rlaridan keyin uyg‘ur xatida qo‘l qo‘yb, tagiga “baxshi belgusi” deb yozib ham qo‘yibdi. “Maxzan ul-asror”ning oxiriga qo‘yilgan qo‘l ham aynan shuning o‘zi.

Ushbu qo‘lyozma nusxaning yutuqlaridan biri — asar va ichki bo‘lim hamda hikoyatlarning sarlavhalari to‘liq qo‘yb chiqilgan. Asarning boshlanishiga: “Maxzan ul-asrori Mavlono Haydar alayhi-r-rahma” deb sarlavha qo‘yilgan.

Ichki sarlavhalari ikki xil: boshlanishidagi va matn davomidagi ayrim sarlavhalar arabcha va forsha, ular zarhalda bitilgan.

Turkiy sarlavhalar quyuq qorada uyg‘ur xati bilan, o‘qilishi esa tagma-tag arab xatida bitilgan. Turkiylari shunday: “Mirzo Iskandarning husni taxallusi”; “Yaqubi payg‘ambar hikoyati, alayhissalom”; “Sulton Temurbekning bu bir hikoyati, taqribi tasrif uchun aydur”; “Sulaymon payg‘ambar alayhissalomning hikoyati, taqrib uchun kelturup turur” singari.

Asar boshdan-oxir qorada uyg‘ur harflari bilan, ularning o‘qilishi arab harflari bilan qirmizi rangda bitilgan, har betida o‘n bir qator-dan. Xati nihoyatda chiroyli. Tartib bilan ko‘chirilgan qo‘lyozma.

Uyg‘ur yozuvli matnning xat uslubi “Qutadg‘u bilig‘”, “Tazkirayi avliyo”, “Hibat ul-haqoyiq”ning Zayn ul-obidin baxshi ko‘chirgan Samarqand qo‘lyozmasi uslubidan farq qiladi.

Har qaysi varaqning ostida uyg‘ur yozuvli matnga poygir belgilari qo‘yb ketilgan. Qo‘lyozma kitobning 81b-88b-betlariga Mavlono Lutfiy va Sakkokiyning g‘azallaridan bitilgan.

Mavlono Lutfiy g‘azallariga “Lutfiy aydur”, “Bu dag‘i Lutfiyning g‘azali”, “Bu dag‘i Lutfiyning”, “Mavlono Lutfiyning g‘azali”, “Lutfiy g‘azali” deb, Sakkokiy g‘azallariga esa “Sakkokiy aydur”, “Sakkokiyning g‘azalaridin yana bir g‘azal aydur” deb sarlavhalar qo‘yb chiqilgan. Ular ham quyuq qorada uyg‘ur xatida bitilib, o‘qilishi tagma-tag arab xatida berilgan.

Temuriylar davri yozuv madaniyatida o‘tmish an’analariga, ota-bobolardan qolgan yozuvlarga e’tibor katta edi. Temuriylar davlatida tarixnavislik, badiiy adabiyot, ta’lim va fan sohasi, davlat devonxonalar va xo‘jalik ishlarida, rasmiy-diplomatik munosabatlarda ikki xil yozuv — eski uyg‘ur va arab alif-bolari ishlatilgan. Uyg‘ur yozuvi Temuriylar davlatining rasmiy yozuvi edi. Turkiy-islom dunyosida otalardan qolgan ushbu yozuvni so‘ng bor ishlatgan ham temuriylar bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘sha qatorlardan qolgan eski o‘zbek yozma adabiy tili (“chig‘atoy tili”) yodgorliklari ikki xil — uyg‘ur va arab yozuvlaridadir.

Turkiy xalqlarning yozuv madaniyati tarixida XIV-XV asrlar eski turkiy yozuvdan arab xatiga o‘tish bosqichi sanaladi. Shunga qaramay, badiiy adabiyot, tarixnavislikda, shu qatorda davlat hujjatchilik ishlari, xalqaro diplomatik munosabatlarda uyg‘ur xatining (Navoiy so‘zi bilan aytganda “turkcha xat”ning) mavqei yuqori edi. Eski turk yozuv an’anasini saqlab, turk-islom dunyosida uyg‘ur xatini so‘ng bor qo‘llagan ham temuriylardir. Temurbek o‘z saltanatining rasmiy ishlarida, ichki hamda tashqi diplomatik munosabatlarda, badiiy adabiyot sohasida, bilim kishilari orasida ota-bobolardan meros qolgan uyg‘ur xatining keng amal qilishiga xayrixohlik qildi va buning ijrosiga katta e’tibor qaratdi. Temuriylar davrida uyg‘ur xati arab xati bilan tengma-teng, turkiy yozma adabiy tilining yetakchi, butun bir saltanatning ish yurituvchi rasmiy yozuvi edi. Temuriylar davri madaniy va adabiy aloqalari ta’sirida turk sultonlari ham o‘z saroylarida uyg‘ur xatini ishlatgan.

Mir Haydarning “Maxzan ul-asror” masnaviysi XV asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan asarlaridan biridir. Shoir Mir Haydarning, qolaversa, o‘sha davrda yashab ijod qilgan, Atoyi, Gadoyi, Lutfiy, Sakkokiy singari ijodkorlarning savodi uyg‘ur xatida chiqqan. Mir Haydar o‘zining “Maxzan ul-asror” masnaviysini ham uyg‘ur xatida yozib, Sulton Iskandarga tortiq qilgan bo‘luvi kerak. Asarning arab yozuvli nusxalari keyinchalik ana shu matnga tayanib ko‘chirilgan deyish mumkin.

Asarning kunimizgacha yetib kelgan qo‘lyozmalari uyg‘ur va arab yozuvlarida bo‘lib, uyg‘ur yozuvidagilari ancha eski. Yana bir jihati, masnaviyning Hirotlida Aliyshoh baxshi va Istanbuldagi Abdulrazzoq baxshi ko‘chirgan qo‘lyozmalari o‘rta asrlar kitobat san’atining nodir yodgorliklari sanaladi.

Aytish o‘rinliki, masnaviyning hozirgi ilmiy nashrlari arab yozuvli nusxalar asosida yaratilayotir. Uyg‘ur yozuvli nusxalar esa chetda qolmoqda. Vaholanki, muallif matnini tiklashda uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmalarining ahamiyati muhimroq. Shu jihatdan, masnaviyning uyg‘ur yozuvli nusxalarini o‘rganishga ham katta e’tibor qaratilmog‘i kerak.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DUK

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646.
43927 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Feruza Jo‘rayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 01:20

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05